

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI KAFEDRASI



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
v.b. _____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 yil

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

O‘zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar va ularning sintaktik xususiyatlari
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi:

Sarimsoqova Ra’no

Ilmiy rahbar:

dots. B.Fayzullayev

Taqrizchi:

prof.X.Jo‘rayev

BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI
kafedrasi yig‘ilishining qarori bilan (qaror №10, 15.05.2013)
himoyaga tavsiya etilgan.
Kafedra mudiri _____ p.f.n. Q.Yadgarov

JIZZAX-2013

**O‘ZBEK TILIDA MURAKKABLAHSHGAN SODDA GAPLAR VA
ULARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI
REJA:**

Kirish.

I. bob. Murakkablashgan sodda gaplar yuzasidan nazariy qarashlar haqida.

1.1. Sodda gap va murakkablashgan sodda gaplar.

II. bob. Murakkab sodda gaplarni shakllantiruvchi vositalar

2.1. Kirish va kiritmalar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.

2.2. Undalmalar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar

2.3. Ajratilgan bo‘laklar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.

2.4. Sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.

III-bob. Ishning amaliyotga tadbiqi.

3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida kirish va kiritmalarning berilishi.

3.2. Ochiq dars ishlanmasi.

Xulosa.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikdan so‘ng barcha jabhalarda o‘shish, taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlanmoqda, odamlarning voqelikka bo‘lgan munosabatlari keskin ijobiy tomonlarga o‘zgarib bormoqda, o‘zligini anglash hissiyoti kuchaymoqda. Milliy o‘zlikni anglashda milliy qadriyatlarimizning asosi bo‘lmish ona tiliga bo‘lgan munosabatimiz muhim o‘rin tutadi. Yurtboshimiz I.A.Karimov aytganlaridek “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”¹

Hozirda o‘zbek tili barcha tashqu va tahrirlardan ozod bo‘lib, erkin taraqqiyot yo‘liga tushib oldi. Istiqlol yillarida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi nihoyatda kengaydi, tilimizni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy-omabop kitoblar va qo‘llanmalar jamiyat tafakkurini yuksaltirishga muhim hissa qo‘shmoqda.

Ulkan tilshunos olim filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov ta’kidlaganidek, “Ma’naviyatning, xususan milliy ma’naviyatning shakllanishi va kamol topishida ona tili fovqulodda o‘rin tutganligi bois istiqlool davrida ona tili, ona tili ta’limi, til masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatimizda “Davlat tili haqida”gi qonunimizga muvofiq odil va xolis til bo‘ldi, yurtimiz kabi tilimiz obod bo‘ldi”²

Tilimiz, so‘zimiz ozod va obod bo‘lgan ekan tilimiz, uning ayrim muammoli tomonlariga xolisona fikrlarni aytish imkoniyatlari yaratildi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008, 87б.

² Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилло сандиғи. Т.: Ғ.Ғулом, 2012.

O‘zbek tilida “murakkab gap”, “murakkablashgan gap”, “murakkablashgan sodda gap” atamaları bilan nomlanib kelayotgan sintaktik birliklar hamon o‘z yechimini topmagan masalalardan biridir degan fikrdamiz. Chunki tilimizda ma’lum bir narsa, hodisa va boshqalarga uning mazmunini yaqqol aks ettiradigan nom belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin o‘zbek tilshunosligida bu borada ham bir to‘xtamga kelinganicha yo‘q. Shularni inobatga olgan holda, ushbu mavzuga qo‘l urildi va uning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan fikr – mulohazalarni bildirish tilshunosligimiz uchun murakkablashgan sodda gaplarning xususiyatlarini ochishda yordam berishi mumkin degan fikrdamiz.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu mavzu o‘zbek tilshunosligida qator tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, G‘.Abdurahmonov, N. Mahmudov, A.Nurmonov, B.O‘rinboyev, A.Sayfullayev, I.Toshaliyev va boshqalar tomonidan ushbu mavzning sintaktik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar mavjud. Lekin bu tadqiqotlarda murakkablashgan sodda gaplarning tarkibiy tuzilishi va nomlanishi yuzasidan bir to‘xtamga kelinmagan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ushbu sintaktik birliklar yuzasidan turli munosabat va qarashlar mavjud. Biz ushbu ishimizda ustozlarning fikrlarini inobatga olga holda, murakkablashgan sodda gaplar xarakterini chuqurroq o‘rganishga qaror qildik. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarni o‘rganishni vazifa qilib oldik.

- mavzu yoritilgan barcha ilmiy adabiyotlarni o‘rganib chiqish;
- ushbu mavzu yuzasidan boshqa tillarda yaratilgan asarlar va ulardagi fikrlarni aniqlash;
- badiiy adabiyotlardan murakkablashgan sodda gaplarga xilma-xil misollar to‘plash;

- barcha materiallarni o'rganish, taqqoslash natijasida o'z fikr-mulohazalarimizni o'rta tashlash.

Tadqiqot obyekti. Ushbu mavzu yuzasidan tadqiqot obyekti sifatida tilshunoslikning sintaksis bo'limiga oid tadqiqotlarni o'rganib chiqish, ularni bir-biriga taqqoslash masalasi olindi. Shuningdek, turli janrdagi badiiy adabiyotlardan murakkablashgan sodda gaplarga misollar topish, ularni qiyoslash va xulosalar chiqarish ham tadqiqot obyektiga kiradi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv malakaviy ish tadqiqotning umumiy tavsifi, kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami----- betni tashkil etadi.

O‘zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar va ularning sintaktik xususiyatlari

Mustaqilligimizdan so‘ng barcha fan yo‘nalishlari bo‘yicha katta yutuqlarga erishildi. Chunki ilmiy tadqiqot ishlariga, muammolarning yechimini topishda shaxslarga erkinlik darvozalari lang ochildi. Mustaqillikdan so‘ng, ayniqsa, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin o‘zbek tilshunosligida keskin ijobiy burulishlar yuzaga keldi. Chunki shunga qadar jamiyatimizda “ikki tillilik” g‘oyasi hukmron bo‘lib, o‘zbek tilining mustaqil taraqqiyotiga to‘sqinlik qilar edi. O‘zbek tili so‘nggi XX asrning 20 yillaridan to 80 yillarning oxirlariga qadar, ya’ni O‘zbekiston o‘zining mustaqilligini e’lon qilgangacha bo‘lgan davrda rus tilining qattiq ta’siri ostida qoldi. Buning natijasida o‘zbek tilida “ruscha-internatsional” so‘zlar ulkan so‘zlar qatlami yuzaga keldi, bu qatlamdagi so‘zlarning chet so‘z ekanligi har bir kishiga ma’lum edi.

Bu salbiy ta’sir nafaqat leksikada, balki o‘zbek tilining boshqa sathlarida ham yaqqol sezilib turar edi. Jumladan, grammatikada ham. Chunki sovet davrida O‘zbekistonda rus tilini o‘rganish, targ‘ib qilish va rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘plab rasmiy hukumat qarorlari qabul qilingan, qator tadbirlar o‘tkazilgan. Ammo o‘zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan rasmiy qarorni topish mushkul. U davrda o‘zbek tilining rasmiy doiralarda qo‘llanishi chegaralangan, mavqeyi rasman yo‘q darajada edi. Hatto ma’muriy idoralarda xodimlarni ishga olish va tanlashda ham rus tilini bilish darajasi asosiy o‘lchov bo‘lgan. Demak, u davrda o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tibor juda quyi darajada, to‘siq esa yuqori darajada edi. Ba’zilar esa bunday holatda o‘z fikrlarini aytishga ham hayiqishgan. Shu sababli ayrim tilshunoslar ham til qoidalarini shundaygina rus tilidan tarjima qilib

olishni ma'qul ko'rishgan. Vaholanki, rus tili grammatik qurilishi bilan o'zbek tili grammatik qurilishi o'rtasida juda katta farq mavjud.

Faqat til mustaqilligi va yurt mustaqilligi o'z tilimizning ichki qonuniyatlari asosida o'rganishga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Hozirda fanning barcha sohalari bo'yicha mavjud muammolarni o'rtaga tashlash, ularga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini bildirishga hech qanday ta'qiq yo'q.

Ushbu ishda mustaqillikkacha va mustaqillikdan so'ng sintaksis tizimida, asosan, murakkablashgan sodda gaplar yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, bu sintaktik birlikning o'ziga xos xususiyatlari, murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi grammatik vositalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz.

Ishning yoritilishidagi asosiy manbalar sifatida G'.Abdurahmonovning "O'zbek tili grammatikasi", A.G'ulomov, M.Asqarovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili", B.O'rinboyevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili", N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida qator yillar davomida chop etilib kelingan maqolalar o'rganish obyekti qilib olindi.

1 BOB. MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR

HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR

1.1. Sodda gap va murakkablashgan sodda gaplar.

Ushbu masala yuzasidan soʻz yuritilar ekan, eng avvalo sodda gaplar sintaksisiga nazar tashlamoq oʻrinlidir. Maʼlumki, kishilar fikrlari, maqsadlari, umuman, ongida hosil boʻlgan barcha narsalarni nutqi orqali borliqqa chiqaradi. Gap esa maʼlum fikrni ifodalab, inson nutqining bir qismini tashkil etadi. Gaplar oʻz tarkibiy tuzilishi jihatidan turlicha, yaʼni sodda, qoʻshma, murakkab koʻrinishlarda boʻlishi mumkin. Gaplarning tuzilishiga koʻra ushbu turlari oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, ular shakllanish xususiyatlari, shakllantiruvchi vositalar, fikr anglatish koʻlamlariga koʻra bir-birlaridan farqlanadilar. Shu sababli murakkablashgan sodda gaplar haqida fikr yuritishdan oldin sodda gaplar haqida, umuman gap haqida yaxshi tasavvurga ega boʻlmoq kerakdir.

Gap haqida umumiy tasavvur hosil qilish maqsadida ushbu mavzu yoritilgan bir qancha adabiyotlarni qiyoslashni lozim topdik.

A.Gʻulomov, M.Asqarovalar tomonidan yaratilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”¹ (sintaksis) darsligida gapga quyidagicha taʼrif beriladi: “Gap fikr, tuygʻu va istakni boshqalarga bildirish uchun ishlatiladi, u-fikr bayon qilishning eng sodda formasi”. “Oʻzbek tili grammatikasi”² kitobida esa “gap maʼlum fikrni ifodalab, nutqning bir qismini tashkil etadi” deb taʼriflanadi.³ Gʻ.Abdurahmonov tomonidan yaratilgan “Oʻzbek tili grammatikasi” darsligida ham gapga yuqoridagicha taʼrif berilgan. Sintaksisga oid yana bir darslik B.Oʻrinboyevning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili darsligida gap shunday taʼriflanadi: “Obyektiv borliq va unga boʻlgan munosabatni ifoda qilib, nisbiy tugal fikr yoki his-tuygʻu anglatib, tugal

¹ A.Gʻulomov, M.Asqarova. hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.: Oʻqituvchi, 1965, 27 b.

² Oʻzbek tili grammatikasi. T.: Fan, 1976, 95 b.

³ Gʻ. Abdurahmonov. Oʻzbek tili grammatikasi. T.: Fan, 1996, 7b.

intonatsiyaga ega bo'lgan hamda grammatik qonun qoidalar asosida o'zaro birikkan so'zlar bog'lanmasi gap deyiladi"⁴.

A.G'ulomov, M.Asqarovalar tomonidan yaratilgan darslikning qayta nashrida gapning ta'rifi yanada to'ldirilgan va aniqliklar kiritilganini ko'ramiz: "Nutqning grammatik forma, intonatsiya va mazmun jihatidan tugallikka ega bo'lgan mustaqil parchasi gapdir, so'z birikmasi bunday xususiyatga ega emas, u gapda qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun gap haqida ta'limot sintaksisning asosi hisoblanadi"⁵.

Yuqoridagi ta'riflardan ham ko'rinib turibdiki, gap kishilar o'rtasida aloqa o'rnatishning eng kichik qismi hisoblanadi. Nutqimizda eng ko'p qo'llanadigan gap turlaridan biri sodda gaplardir. Sodda gaplar yuqorida qayd etilgan adabiyotlardagi ta'riflarga mos keladi. Sodda gaplar kommunikativ vazifani bajaruvchi eng kichik, lekin muhim sintaktik birlikdir. Gaplarning qurilishiga ko'ra boshqa turlari, ya'ni murakkablashgan sodda gaplar, qo'shma gaplar, murakkab qo'shma gaplarning shakllanishida ham sodda gaplar asos sifatida muhim o'rin tutadi.

Gap bo'lishning ma'lum grammatik belgilari mavjud. Har qanday gapda, u bir so'zdan yoki ko'p so'zdan iborat bo'lishidan qat'iy nazar, nisbiy fikr tugalligi va predikativlikning mavjudligi, grammatik jihatdan ma'lum qonun-qoidalar asosida shakllanishi o'ziga xos intonatsiyaga (ohang) ega bo'lishi shart. Yuqorida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan yakka so'z yoki bir necha so'zdan iborat bo'lgan sintaktik birliklar gap hisoblanadi.

Har bir gapda ma'lum fikr maqsad yoki his-hayajon ifodalanish shart, aks holda u gap emas, so'zlar birikmasiga aylanib qoladi. (Masalan:

⁴ B.O'rinboyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand, 2006, 45b

⁵ A.G'ulomov, M.Asqarova. yuqoridagi asar. 5 b.

Sardor keldi yoki Sardorning kitobi). Bunday birinchi sintaktik birlik gapga (fikir ifodalamoqda), ikkinchi sintaktik birlik soʻz birikmasi (tushuncha ifodalamoqda)ga tengdir. Albatta gaplarda fikr ifodalash sodda va qoʻshma gap shaklida ifodalanishi mumkin.

Gapning asosiy belgilaridan yana biri predikativlikdir. Modallik - gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalashdan iboratdir. Chunki soʻzlovchi gap orqali biror voqea-hodisa yoki xususiyatining mavjudligi yoki biror zamonda roʻy berishi, aniqligi yoki noaniqligi, xohishi yoki noroziligi kabi munosabatlarni ham ifodalaydi. Bu munosabat, yaʼni modallik mayl va zamon, shaxs, kategoriyalari roʻyobga chiqadi. Bu kategoriyalar turli morfologik, sintaktik vositalar yoki ohang va boshqa yoʻllar bilan ifodalanishi mumkin.

Gapning yana bir asosiy belgilaridan biri unda maxsus intonatsiyaning boʻlishidir. Har bir gap oʻziga xos ohanggi bilan shakllanadi va boshqa gaplardan ajralib turadi. Chunki har bir gapning boshlanishi va tugallanishi uning intonatsiyasidan sezilib turadi, gap oxirida ohang ham tugallanadi. Koʻpchilik tillarga xos bu qonuniyat oʻzbek tiliga ham asosan mos keladi. Ammo bu sohada oʻzbek tili gap tuzilishida oʻziga xos xususiyatlar ham mavjud. Eng avvalo, gapning ohangi oʻzbek tilida maʼlum darajada farqli xususiyatlarga ega. Qoʻshma gapni tashkil etgan gaplarning har biri tugallangan sodda gap ohangi bilan talaffuz etilmaydi, ohang qoʻshma gap oxirida tugallanadi. Buning sababi qoʻshma gapning bir gap sifatida oʻqilishi va umumiy bir fikrning, maqsadning ifodalanishidir. Ammo bunday qoʻshma gap tarkibidagi gaplar grammatik jihatdan gaplikdan chiqardi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Qoʻshma gap tarkibidagi qismlarda maʼlum bir hukm ifodalanadi va predikativlik mavjud boʻladi, ammo mustaqil sodda gaplardagidek ohang tugalligi boʻlmaydi.

Gap bo'lishning keyingi shartlaridan biri uning grammatik jihatdan ma'lum qonun-qoidalar asosida shakllanishidir. Har bir gap grammatik qoidalarga muvofiq shakllanadi. Grammatika qoidalari so'zlarni biriktirishning, so'z birikmasi va gap hosil qilishning butun formalarini ko'rsatadigan umumiy qoidalardir: so'z birikmalarining, gaplarning hamma tiplari shu umumlashtiruvchi qoidalarga asoslanadi. Masalan, tiniqu suv, oqar suv, suvning shildirashi (bularning hammasi "aniqlovchi+aniqlanmish" maketi asosida tuzilgan); Suv tiniq. Yaproqlar shitirladi (ega+kesim); Biz tinchlik istaymiz (ega + to'ldiruvchi+kesim) va boshqalar.

Gaplar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: sodda gap, murakkablashgan sodda gap, qo'shma gap, murakkab qo'shma gap, periodlar yoki matn sintaksisi. Yuqorida berilgan ta'rif va talabalar barcha gap qurilishi turlariga tegishlidir.

Sodda gaplar struktura va intonasiya jihatdan shakllangan, bir nisbiy tugal fikrni ifodalaydigan, tarkibi ayrim-ayrim predikativ qismlarga, predikativ qo'shilmalarga bo'linmaydigan sintaktik birliklardir. Ular asosan ega va kesimdan (ba'zan bir ajralmas bo'lakdan) yoki ega-kesim va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'ladi. Masalan: Saida kuldi (ega va kesim). Qalandarovning ko'zlari olayib ketdi (aniqlovchi+ega+kesim). Tong. Havo salqin (bo'laklarga ajralmaydigan gap). Yumshoq shamol mayingina esib turibdi (aniqlovchi+ega+hol+kesim).

Sodda gaplar o'z tarkibiga gap bo'laklarini birlashtiradi. Sodda gaplar tuzilishiga ko'ra, ya'ni gap bo'laklarining ishtirokiga ko'ra sodda yig'iq, sodda yoyiq gaplarga bo'linadi. Faqatgina bosh bo'laklardan tashkil topgan gaplar-yig'iq gap, agar bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etsa, sodda yoyiq gaplar hisoblanadi. Shuningdek, sodda gaplar bosh bo'laklarning ishtirokiga ko'ra ikki sostavli va bir

sostavli gaplarga bo‘linadi. Bunday bo‘linish gapda bosh bo‘laklardan birining yoki har ikkisinin ishtirok qilishiga asoslanadi.

Yuqorida biz gapning tabiati, xarakterli belgilari, tarkibiy tuzilishlari bilan tanishdik. Bu belgilarni shunday xulosalash mumkin: gap nutqning asosiy birligi, u so‘zlar guruhidan yoki bir so‘zdan iborat bo‘lib, informasiya bildirish, aloqa – aralashuv vositasi sifatida xizmat qiladi. Gapda obyektiv borliq (ifodalanadi) aks etadi. Gapning asosiy belgisi gapdagi mundarijaning real voqelik bilan bog‘liq bo‘lishidir. Bu predikativlik hodisasidir. Predikativlik modallik, zamon va shaxs kategoriyalari bilan bog‘liq. Gap fikrni ifodalash bilan birga, emosiyalarni, affektlarni (affekt-juda kuchli, qat’iy, qisqa muddatli hayojon) ham bildiradi, so‘zlovchining shu fikrga munosabatini ham ko‘rsatadi. Gapdagi bo‘laklarning hammasi birgalikda grammatik butunlikni, yaxlitlikni tashkil etadi. Gap doim intonatsion tugalligi (ya’ni, nisbiy tugallik), grammatik yaxlitlik bilan mos bo‘ladi.

Bu umumiy belgilar asosida gapning quyidagi ta’rifi kelib chiqadi: gap grammatik shakllangan, intonasion tugallikka ega bo‘lgan, fikrni shakllantirish va ifodalash, bildirish vositasi bo‘lgan yaxlit asosiy sintaktik birlikdir.

Nutqda sodda gaplar tarkibida gap bo‘laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan qismlar ham mavjud bo‘ladi. Ular alohida bo‘lak sifatida biror vazifa bajarmasa-da, lekin gapdan anglashayotgan fikrga u yoki bu darajada fikr qo‘shadi. Natijada, gap tarkibida murakkablashish hodisasi sodir bo‘ladi. Darslik, qo‘llanma va ilmiy adabiyotlarda ushbu gap turi yuzasidan bir necha xil qarashlar mavjud ekanligini ko‘ramiz.

Eng avvalo, ushbu sintaktik birlikning nomlanishi haqida bir to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir. Chunki adabiyotlarda ularni turlicha nomlash holatlari ko‘zga tashlanadi. Ilk bor ushbu sintaktik kategoriya haqida

“O‘zbek tili grammatikasi” nomli kitobda gap yuritilgan. Bu kitobda murakkablashish xususiyatiga ega bo‘lgan sodda gaplar turini murakkab gap konstruksiyasi¹ deb nomlangan.

A.G‘ulomov, M.Asqarovalar tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida shunday yozilgan: “Sodda gapni murakkablashtiruvchi elementlar xilma-xil: uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kirish konstruksiyalar, kiritma konstruksiyalar va undalmalar. Bunday murakkablashtirish gapni sodda gap doirasidan chiqarib yubormaydi, balki murakkablashgan sodda gap hosil qiladi”².

Atoqli olim G‘.Abdurahmonov bu turdagi sintaktik birliklar haqida shunday deydi: “Murakkab gap sintaksisining tarkibiy qismini ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish yoki izoh bo‘lak va birikmalar tashkil etadi. Bu sintaktik kategoriyalar oddiy gap bo‘laklaridan ham, qo‘shma gapni hosil qiluvchi qurilmalardan ham farqlanib, murakkab gap qurilmalari deb yuritiladi”³.

N.Mahmudov va A.Nurmonovlar esa murakkab gap atamasi ko‘proq qo‘shma gap turiga nisbatan qo‘llanishini e‘tiborga olib, sodda gap doirasidagi bunday qurilmalarga nisbatan murakkablashgan gaplar atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblashadilar⁴.

B.O‘rinboyev ushbu sintaktik kategoriyaga quyidagicha ta’rif beradi. “Sodda gapning tarkibida uyushiq bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo‘laklar, sifatdash va ravishdash o‘ramlar, harakat nomli tizimlar qatnashib sodda gapni ham shakliy, ham mazmunij jihatdan murakkablashtiradi. Bunday gaplar murakkablashgan sodda gaplar deb ataladi”⁵.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т.: Фан, 1976, 208б.

² Гуломов А, Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи, 1987, 140 б.

³ Ғ.Абдурахмонов. Ўзбек тили грамматикаси. Т.: ўқитувчи, 1996, 47 б.

⁴ Н.Маҳмудов, А.Нурмонов. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т.: 1995, 97 б.

⁵ Б.Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Самарқанд, 2006, 120 б.

Yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, ko‘rsatilgan adabiyotlarda murakkab ko‘rinishga ega bo‘lgan sodda gaplarning nomlanishi borasida ham olimlarimiz bir atamani tanlashmaganlar. “O‘zbek tili grammatikasi” kitobida “murakkab gap konstruksiyasi”, A.G‘ulomov, M.Asqarovalar “murakkablashgan sodda gap”, G‘.Abdurahmonov “murakkab gap qurilmalari”, N.Mahmudov, A.Nurmonovlar “murakkablashgan gaplar”, B.O‘rinboyev “murakkablashgan sodda gaplar” deb nomlaganlar. Vaholanki, tilshunoslikdagi ma‘lum bir til kategoriyasi olimlar o‘rtasida bir xil nomlanishi maqsadga muvofiq bo‘lib, bu ba‘zi bir chalkashliklarning kelib chiqishining oldini olar edi. Chunki til fani ham aniqlikni talab qiladigan fanlardan hisoblanib, talab qiladi. Albatta, yuqoridagi ta‘rif va nomlanishlar ham biz o‘rganayotgan sintaktik birliklar xarakterini u yoki bu darajada ochib bergan. Lekin yuqorida ta‘kidlaganimizdek, atashda bir xillik bo‘lishi juda ko‘p anglashuvmovchiliklarning oldini oladi.

Bizningcha, yuqoridagi fikrlarni tahlil qilgan holda ushbu sintaktik birliklarni “murakkablashgan sodda gaplar” deb atash o‘rinlidir. Chunki ushbu gap turi sodda gapning turli til birliklari vositasida murakkablashishi natijasida hosil bo‘ladi. Ya‘ni u qo‘shma gap darajasiga yetmaydi, sodda gapdan esa tarkibi va fikr to‘liqligi bilan farqlanadi. Faqat sodda gap murakkablashish xususiyatini kasb etadi.

Bundan tashqari tilda ma‘lum sistema mavjudki, u hamisha soddadan murakkabga, quyidan yuqoriga bir xillikni ta‘minlashga harakat qiladi. E‘tibor qilsak, so‘z birikmasi sodda va murakkab gap bo‘laklari ham sodda va murakkab ko‘rinishlarga ega. Shuningdek, qo‘shma gap ham murakkab turiga ega. Shularni inobatga olgan holda, sodda gapning bu ko‘rinishini “murakkablashgan sodda gaplar” deb atash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu ta‘rif A.G‘ulomov, M.Asqarova va

B.O‘rinboyevlarning fikrlari bu sintaktik birliklar xarakteriga mos keladi va shunday deb atash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Murakkablashgan sodda gaplarni murakkablashishiga sabab bo‘ladigan, shakllantiradigan vositalar mavjud, albatta. Bu masalada ham olimlar orasida bir xillik mavjud emasligini ko‘rish mumkin. Yana yuqoridagi adabiyotlarga e‘tibor qaratsak.

“O‘zbek tili grammatikasi” kitobida ushbu sintaktik birliklarga “murakkab gap” atamasi qo‘llanilgan bo‘lib, uning tarkibiy shakllanishi haqida quyidagilar aytiladi: “Murakkab sintaksisda sodda gap tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik konstruksiya va kategoriyalar o‘rganiladi. Bular quyidagilar: gapning ajratilgan bo‘laklari, undalmalar, kirish bo‘laklar”¹

A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligidagi bu sintaktik birliklar tarkibiy tuzilishini quyidagicha ko‘rsatadi: “Sodda gapni murakkablashtiruvchi elementlar xilma xil: uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kirish konstruksiyalar va kiritma konstruksiyalar va undalmalar”²

G‘.Abdurahmonovning “O‘zbek tili grammatikasi” darsligida yuqoridagi “O‘zbek tili grammatikasi” kitobidagi qarash mavjudligini ko‘ramiz (ajratilgan bo‘lak, undalma, kirish bo‘laklar)³.

B.O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida murakkablashgan sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalarga quyidagilarni kiritadi: uyushiq bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo‘laklar, sifatdosh, ravishdosh o‘ramlar, harakat nomli tizimlar...⁴

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т.: Фан, 1976, 202 б.

² Юқоридаги асар. 140 б.

³ Юқоридаги асар. 141 б.

⁴ Юқоридаги асар. 120 б.

Bunda murakkablashtiruvchi vositalar batafsil berilgan. Xuddi A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ko‘rsatilganidek uyushiq bo‘laklarni ham murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi vosita sifatida kiritilgan.

N.Mahmudov va A.Nurmonovlar esa undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo‘laklar, sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar, harakat nomli tizimlar, ishtirok etgan gaplarni murakkablashgan gap deb hisoblaydilar¹.

Ko‘rinadiki, murakkablashgan sodda gaplarning tarkibiy tizimi yuzasidan yuqorida qayd etilgan manbalarda uch xil tarkibiy shakllanishni aytilganini ko‘ramiz. G‘.Abdurahmonov sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar kengayib kelganda, ajratilgan bo‘lakka aylanishini inobatga olib, ularni ajratilgan bo‘laklar tarkibiga kiritadi. A.G‘ulomov, M.Asqarova, B.O‘rinboyevlar uyushiq bo‘laklarni murakkablashtiruvchi unsurga qo‘shadilar.

Lekin N.Mahmudov, A.Nurmonovlar uyushgan bo‘laklar gap tarkibida tobelanish yo‘li bilan birikib, alohida bo‘lak nomini olganligini aytib, ular sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalarga kirmaydi, deb hisoblaydilar.

Demak murakkablashgan sodda gaplar atamasi borasida ham, uni shakllantiruvchi tarkibiy vositalar yuzasidan ham o‘zbek tilshunosligida bir xil nuqtai nazar mavjud emas ekan. Chunki, ushbu grammatik kategoriya tilshunoslikda yangi soha bo‘lib, ham ko‘p izlanishlarni talab qilishi tabiiy.

Biz yuqoridagi qarashlarni tahlil qilish bilan ustoz olimlarimizni qoralash, ularga nisbatan salbiy munosabat bildirishdan yiroqdamiz. Aksincha, bizning bunday munozaralarimiz ularni yanada izlanishga,

¹ H.Маҳмудов, А.Нурмонов. “Ўзбек тилининг назарий грамматикаси”. Т.: 1995, 98 б.

murakkablashgan sodda gaplar xususiyatini ochib beradigan yagona to'xtamga kelishlariga turtki bo'ladi degan niyatdamiz.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda yuqoridagi fikrlarni har tomonlama tahlil qilgan holda, o'rganayotgan obyektimizni "murakkablashgan sodda gaplar" deb nomlash to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz va ishda barcha o'rinlarda shu atamani qo'llashni lozim topdik.

Murakkablashgan sodda gaplarning shakllantiruvchi grammatik birliklar haqida to'xtaladigan bo'lsak, G'.Abdurahmonov, N.Mahmudov, A.Nurmnovlarning qarashlari ushbu sintaktik birliklarning xarakterini to'g'ri yoritgan deb o'ylaymiz. Chunki uyushgan bo'laklar o'z nomi bilan bo'lak hisoblanib, u gap tarkibida ma'lum bir vazifani bajaradi va ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi. Shuningdek, gap tarkibida boshqa bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirisha oladi. Shunday ekan, uni sodda gap tarkibida gap bo'lagi sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shunday ekan, ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish va kirtmalar, shuningdek, ravishdosh, sifatdosh o'ramlar, shart fe'lli qurilmalar ishtirok etgan gaplar murakkablashgan gaplarni shakllantiradi. Murakkablashgan sodda gap sintaksisida gap tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik qurilma va kategoriyalar o'rganiladi. Ular quyidagilar: Gapning ajratilgan bo'alaklari, undalmalar, kirish va kiritmalar.

I. Gapning ajratilgan bo'laklarini ajratilgan sifatlovchilar, izohlar, ajratilgan predikativ qurilma (ravishdosh, sifatdosh va shart fe'lli birikmalar), maxsus ajratilgan ko'makchili qurilmalar tashkil etadi.

1.1. Ravishdosh, sifatdosh va shart fe'li boshqargan qurilmalarning ajratilgan bo'laklar sanalishiga sabab, ularning mazmuni umumiy gap

mazmunidan ajratilib ifodalanishi, ularda ma'lum darajada mazmun tugalligining, predikativlikning bo'lishidir. Masalan: Tashlandiq tegirmonning chirik tomidan suv, mayda kumush tomchilarini sakratib, guvillab otiladi (0). Atrofni aylanib zerikkanimizdan so'ng, o'rtoqlar bilan qishloq bozorini tomosha qilgani chiqishni ma'qul ko'rdik (G'.G'.) Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga (maqol).

Bu xil ravishdosh va sifatdosh, shart fe'li boshqargan qurilmalar ma'lum gap bo'laklaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xos xususiyatlar quyidagilardir:

A) ular mazmunan ma'lum maqsad ifodalaydi (ma'lumki, gap bo'lagi ma'lum bir tushunchani ifodalaydi);

B) ularda ma'lum darajada predikativlik, hukm anglashiladi, bu mazmun ravishdosh, sifatdosh, shart fe'lining fe'llik xususiyatlaridan kelib chiqadi;

V) bu xil qurilmalarda ohang ergash gap ohangiga ma'lum darajada yaqin turadi. Yuqoridagi qurilmalarning bu xil o'ziga xos xususiyatlari ularga ma'lum mustaqillik beradi va shu tomondan ular oddiy gap bo'laklaridan farqlanadi. Bu xususiyatlar ularni ergash gaplarga yaqinlashtirsa-da, ammo ular ergash gap sanalmaydi, chunki tarkiblarida o'z egalari yo'q.

Demak, ravishdosh, sifatdosh, shart fe'lli qurilmalardagi semantik, grammatik va ohangdagi mustaqillik, ergash gaplardagi mustaqillikka qaraganda nisbiy bo'lsa-da, bu xususiyatlar ularni alohida sintaktik qurilma sifatida izohlashga olib keldi. Bu xil qurilmali gaplar qo'shma gap bilan sodda gap orasida turadi. Shuning uchun ham ravishdosh, sifatdosh, shart fe'lli qurilmalar ishtirok etgan gaplarni sodda gaplarning alohida bir qurilishi sifatida murakkablashgan sodda gaplar deb atash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili va boshqa turkiy tillarga oid grammatikalar va ilmiy-tadqiqot ishlarida ravishdoshli qurilmalar ajratilgan bo'laklar sifatida qaraladi. Bunda ajratilgan bo'lak sifatida faqat –(i) b, ba'zan –y shakli ravishdosh qurilmalargina ko'zda tutiladi, -gach, -guncha, -ganicha shaklli ravishdoshli qurilmalar nima uchundir shu qatorda ajratilgan bo'lak hisoblanmaydi. Vaholanki, bunday shaklli ravishdosh qurilmalarni ajratilgan bo'lak sanamaslik uchun hech qanday asos yo'q. Masalan: Buxorodan kelgach, Toshkent maktablarida o'qituvchilik qila boshladi. (A.Q). Bekka yetguncha, beldan ayrilasan (maqol). Umurzoq ota, choynakni ushlaganicha, eshik oldida to'xtagan Olimjonga qayrildi (Sh.R)¹.

Shunday ekan, yuqoridagi gap qurilmalarini ergash gap hisoblab bo'lmaganidek, ularni oddiy gap bo'laklariga ham kiritib bo'lmaydi. Chunki ular gapning ayrim bo'laklari bilan emas, gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishadi, ularda ma'lum darajada predikativlik, hukm xususiyatlarining bo'lishi, alohida ohang bilan talaffuz etilib, asosiy gap bo'laklaridan to'xtam bilan ajralib turishi ma'lum darajada ularga mazmunda, ohangda mustaqillik beradi. Shu xususiyatlariga ko'ra, sifatdoshli, ravishdoshli shart fe'li qurilmalarning bunday turlari ham ajratilgan bo'laklar hisoblanadi. Shu sababli ular mazmun va ohangdagi xususiyatlari, ma'lum darajada mustaqillikka egaligi bilan murakkablashgan sodda gaplarni hosil qiladi, shakllantiradi.

2. Ajratilgan bo'laklarning ikkinchi guruhini ko'makchili qurilmalar tashkil etadi. Albatta, har qanday ko'makchili qurilmalar ajratilmaydi. Ajratilgan bo'lakni tashkil etuvchi ko'makchilar quyidagilardan iborat: tashqari, qaraganda, ko'ra, kabi singari, o'rniga, ustiga, bilan, birga, qarshi, bo'yicha, binoan, tufayli, muvofiq, qaramay, qaramasdan, qaraganda,

¹ Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Т.: Ўқитувчи, 1996, 42 б.

yarasha, holda, bilan, sari. Ammo bu ko'makchili qurilmalar ham ajratilgan bo'lak sanalishi uchun ma'lum shart-sharoit zarur bo'ladi. Ular quyidagilardan iborat ya'ni ko'makchili qurilmalarning ajratilishi uchun: a) tarkib jihatdan yoyiq bo'lishi; b) mazmunni bo'rttirib, ajratib ifodalash; v) alohida ohang bilan talaffuz etilib, asosiy gap bo'laklaridan to'xtam (ohang, pauza) bilan ajralib turishi kerak. Masalan: Hozirgina o'ynab yurgan ikki bola Yo'lchini ko'rishi bilan undan hurkkan kabi, ichkari hovliga qochishdi. –Ajratilgan holli murakkablashgan sodda gap.

Ajratilgan ko'makchili qurilmalar o'ziga xos quyidagi xususiyatlari bilan oddiy gap bo'laklaridan farqlanib turadi:

1) ular gapning umumiy mazmuniga aloqador bo'lib, harakat, holat, xususiyatlarning qanday asosda va qanday ro'y berishi va bermasligini ko'rsatadi yoki ikki xil mazmun bir-biriga qiyoslanadi;

2) ular ma'lum bir so'roqqa javob bo'lmaydi, gapning kesimi bilan yoki boshqa bir bo'lagi bilan grammatik aloqaga kirishmaydi;

3) ularda ma'lum darajada predikativlik xususiyati bo'ladi, hukm anglashiladi;

4) ular o'zi ifodalayotgan mazmunni bo'rttirib, uni boshqa gap bo'laklaridan ajratib ifodalaydi.

5) shu xususiyatlariga ko'ra, ular ajratilgan ohang bilan talaffuz etiladi, ya'ni boshqa gap bo'laklaridan to'xtam bilan ajralib turadi.

Demak, ajratilgan ko'makchili qurilmalar o'ziga xos xususiyatlari bilan oddiy gap bo'laklariga teng bo'lmaydi, ergash gaplarga o'xshab ketadi. Lekin ular ergash gap ham bo'lmaydi, chunki ularning tarkibida o'z egasi bo'lmaydi. "Shunday ekan ajratilgan ko'makchili qurilma ishtirok etgan gap qo'shma gap ham bo'la olmaydi. Shunga qaramay, tarkibida ajratilgan ko'makchili qurilma ishtirok etgan gaplarda murakkab fikr

ifodalanadi. Shunga ko‘ra, bu xil qurilma gaplar murakkab gaplar deb ataladi”¹.

3. Ajratilgan bo‘laklarning uchinchi guruhini ajratilgan sifatlovchilar va ajratilgan izohlar tashkil etadi. Masalan: Yopirilib kelinglar, aziz odamlar; Bu yer odam yeri-muqaddas, ko‘rkam. (G‘.G‘.). Bu yerlarga kelgan u-xalq o‘g‘li, shoir, Vatan tog‘lari sari ochib quchog‘in. (0).

Ajratilgan sifatlovchilar va izohlovchilar o‘z xususiyatlari bilan oddiy gap bo‘laklaridan farqlanadi. Bu xususiyatlar ma‘noni bo‘rttirib, ajratib ifodalash, biror bo‘lakni izohlash ajratilgan ohang bilan talaffuz etilishida ko‘rinadi. Bundan tashqari, bu xil ajratilgan bo‘laklar ikki yoqlama ma‘no munosabatiga kirishadi. Avvalo, ular ma‘lum bir bo‘lakni aniqlaydi, izohlaydi (yuqoridagi misollarda yer so‘zi va u olmoshi aniqlanadi). Ikkinchidan, ajratilgan bo‘lak gapning kesim bilan va u orqali butun gap mazmuni bilan ma‘no munosabatiga kirishadi: birinchi misolda muqaddas, ko‘rkam ajratilgan sifatlovchisi “yer”ni aniqlash va bu xususiyatni ajratib ifodalash bilan birga, kesimga (yopirilib kelinglar) ham bog‘lanadi – nima sababdan yopirilib kelish (sababini) zarurligini ko‘rsatadi (“bu yer muqaddas, ko‘rkam bo‘lgani uchun yopirilib kelinglar”). Ikkinchi misolda ham ajratilgan izohlovchi xalq o‘g‘li, shoir so‘zlari u olmoshini izohlash bilan birga, kesimdan anglashilgan harakat (kelgan)ning nima sababdan ro‘y berishini anglatadi (“xalq o‘g‘li, shoir bo‘lgani uchun, bu yerlarga kelgan”).

Demak, ajratilgan aniqllovchi va izohlovchi qurilmalar tarkibidagi ma‘no va ohangdagi mustaqillik, uning tarkibidagi predikativlik belgilari albatta, ularni ma‘lum bir mustaqil yoki tobe gapga aylantirib yubormaydi (ma‘lum sharoitlarda to‘liqsiz gapga aylanishi mumkin).

¹ Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси (синтаксис). Т.: Ўқитувчи, 1996, 43-б.

Shunday ekan, ajratilgan bo‘laklar o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir tomondan, oddiy gap bo‘laklaridan farqlansa, ikkinchi tomondan, ular to‘liqsiz va ergash gaplardan farqlanib turadi. Ajratilgan bo‘lakli gaplar mazmun va ohangdagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan murakkab fikrni ifodalaydi. Ammo murakkab fikrni ifodalovchi bunday gaplar qo‘shma gap bo‘la olmaydi, chunki tarkibida bitta asosiy predikativ birlik mavjud. Shu bilan birga, bu turdagi gap qurilmalari sodda gap ham bo‘la olmaydi, chunki tarkibida asosiy predikativ birlikdan tashqari, yarim predikativlik mazmuni bo‘lgan ajratilgan gap bo‘lagi mavjud. shuning uchun ajratilgan aniqlovchilar yoki ajratilgan izohlovchilar ishtirok etgan gap qurilmalarini sodda gap bilan qo‘shma gap orasida turuvchi murakkab gaplar turi deb ajratish zarur bo‘ladi.

1.2. Murakkablashgan sodda gaplarni undalmalar, kirish va kiritmalar ishtirok etgan gaplar ham tashkil etadi. Bunday turdagi so‘zlarning gap bo‘lagi bo‘la olmasligi qator darslik va qo‘lanmalarda ko‘rsatib o‘tilgan. Ularning asosiy sababi qilib, undalma, kirish va kiritma bo‘laklari bilan grammatik munosabatga kirisha olmasligini ko‘rsatadilar. Lekin hamma grammatik adabiyotlarda ham bu xil bo‘laklar gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishishi aytib o‘tilgan: bu turdagi bo‘laklar so‘zlovchining ifodalanayotgan harakat holatga munosabatini yoki fikrlar o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi yoki nutq qarashli bo‘lgan shaxs yoki predmetlarni ifodalaydi.

Albatta gap tarkibidagi biror so‘z ma’lum bir ma’no ifodalash uchun ma’lum grammatik aloqaga kirishishi kerak. Ma’lumki, gapda so‘zlarning aloqasi teng va tobe aloqa deb kelinadi. Undalma va kiritmalar esa o‘ziga xos grammatik usul bilan munosabatga kirishadi. “Bu grammatik aloqa

usulini izohlash deb nomlash mumkin”¹. Izohlash grammatik aloqa usuli hozirgi an’anaviy teng aloqa usuliga ham, tobe aloqa usuliga ham o‘xshamaydi. Bu grammatik usul o‘ziga xos bo‘lib, grammatik munosabatlarning uchinchi turini-izohlash usulini tashkil etadi. Chunki undalma va kirishlar ham oddiy gap bo‘laklariga o‘xshab mustaqil so‘z turkumlari bilan ifodalanadi va o‘ziga oid ayrim bo‘laklarni boshqarib kela oladi.

Undalma, kirish va kiritmalar alohida ohang bilan talaffuz qilinib, gapning boshqa bo‘laklaridan ma’lum to‘xtam bilan ajralib turadi. Ular ma’nodagina emas, ohangda ham alohida mustaqildir.

Yuqoridagi sabablar asosida bunday birliklar ishtirok etgan gaplarda sodda bir niyat, fikr ifodalanmay, murakkab fikr va niyat anglashiladi deb ayta olamiz. Shu bilan birga, bunday gap turlari qo‘shma gapni ham tashkil etmaydi. Chunki bu qurilmaning tarkibida bir-biri bilan bog‘langan yoki mustaqil ikki xil predikativ birlik bo‘lmaydi. Undalmali, kirish va kiritmali gaplar murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etadi.

Yuqorida aytilgan barcha fikr va qarashlarni inobatga olgan holda murakkablashgan sodda gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi deb ayta olamiz:

1) murakkablashgan sodda gaplarning tarkibida, asosiy gap bo‘laklaridan tashqari ajratilgan bo‘lak, kirish va kiritma bo‘laklar bo‘ladi (ba’zi gaplarda bo‘laklarning bir nechasi ishtirok etishi mumkin);

2) murakkablashgan sodda gaplar orqali sodda, birgina maqsad, niyat ifodalanib qolmay, murakkab fikr ifodalanadi;

3) murakkablashgan sodda gap tarkibida ikki xil predikativ birlik, hukm bo‘ladi. Bu predikativ birlik yoki hukmning biri asosiy bo‘lib, ikkinchisi to‘liq bo‘lmagan hukm, ya’ni yarim predikativlikdir. Asosiy

¹ Абдурахмонов Ф. Юқоридаги асар, 48 б.

hukm gapning asosiy mazmunidan anglashilsa, to'liq bo'lmagan hukm bu xil gaplarning ajratilgan bo'laklari orqali ifodalanadi;

4) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etgan bo'laklar gapning boshqa bo'laklari bilan yoki gapning umumiy mazmuni bilan izohlash munosabatga kirishadi;

5) undalma, kirish va kiritma, ajratilgan bo'laklar gapning o'ziga xos bo'laklari sanaladi. Ajratilgan ko'makchili qurilmalar to'ldiruvchi ham, hol ham bo'lmay, ajratilgan gap bo'laklarining alohida bir turini tashkil etadi.

Murakkablashgan sodda gap tarkibidagi yarim predikativlik (to'liq bo'lmagan hukm) ergash gaplarga yoki to'liqsiz gaplarga, yoki bir sostavli gaplarning ayrim turlariga o'xshaydi. To'liq bo'lmagan hukmni ifodalagan ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritmalar mazmunan va ohangiga ko'ra ma'lum darajada mustaqillikka ega bo'lsalar ham, ammo ular gap bo'la olmaydi, balki sodda gaplarni murakkablashtiradi, xolos;

6) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etgan bo'laklar asosiy gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishadi. Ular ba'zan shaklan ayrim gap bo'lagini izohlash orqali gapning umumiy mazmuniga aloqador bo'ladi, bunday bo'laklarning mazmun munosabati ikkiyoqlamadir. Ammo bu mazmun munosabatlarining biri asosiy, yetakchi bo'lib, ikkinchisi qo'shimcha mazmun munosabatidir;

7) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etuvchi bo'laklar ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish, kiritmalar va izoh bo'lak va birikmalar o'ziga xos ohang bilan talaffuz etiladi. Bu ohang boshqa gap bo'laklari ohangiga o'xshamaydi, ular gap bo'laklaridan to'xtam bilan ajralib turadi;

8) murakkablashgan sodda gaplar o'ziga xos sintaktik qurilmadir. Ular sodda gapdan ham, qo'shma gapdan ham farqlanadi. Ma'lumki, har

bir sintaktik qurilmaning o'ziga xos tarkibiy qismlari bo'ladi (sodda gapning gap bo'laklari, qo'shma gapning ergash gaplari kabi). murakkablashgan sodda gap sintaksisning tarkibiy qismini ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish, kiritma va izoh bo'lak va qurilmalar tashkil etadi.

Shu sababli bu ko'rinishdagi sintaktik kategoriyalar oddiy gap bo'laklaridan ham, qo'shma gapni tashkil etuvchi qurilmalardan ham farqlanib, murakkablashgan sodda gaplar deb yuritiladi.

II BOB. MURAKKABLAHGAN SODDA GAPLARNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR VA ULARNING IFODALANISHI

II. 1.1. Kirish va kiritmalar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.

Yuqoridagi bobda ta'kidlaganimizdek, murakkablashgan sodda gaplarni maxsus shakllantiruvchi vositalar mavjudki, bu vositalar yordamida hosil bo'lgan gaplarni sodda gaplardan farqlashga olib keladi. Chunki bunday shakllantiruvchi vositalar ishtirok etgan gaplar hukm ifodalash jihatidan ham (qo'shimcha hukm), ohang va talaffuzi jihatidan ham sodda gaplardan farqlanadi. Murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi vositalar bir necha ko'rinishlardan iboratdir. Biz ushbu bobda murakkablashgan sodda gaplarni murakkablashtiruvchi qurilmalar va kategoriyalar yuzasidan fikr yuritmoqchimiz. Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar quyidagilardir: kirish va kiritma bo'laklar, undalmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh va ravishdosh o'ramlar, harakat nomli tizimlar (qurilmalar).

Ma'lumki ushbu sintaktik qurilmalar gapning biror bo'lagi bilan sintaktik munosabatiga kirishmaydi. Kirish va kiritmalar gapning ayrim bo'lagi yoki butun ifodaga so'zlovchining subyektiv munosabatini emotsional tuyg'usini ifodalaydi. Shunday qilib, tarixiy shartnomaga qo'l qo'yildi (K.Yashin). Albatta, buyuk kashfiyotlar osonlikcha tug'ilmaydi. Yolqin akam bundan ham kattaroq unvonni ko'zlayapti, chamasi (P.Q.).

So'z turkumidan ajralib chiqib, faqat modal ma'no ifodalovchi (masalan, shekilli, albatta, demak, modomiki kabilar), shuningdek, ma'lum so'z turkumidan ajralib chiqmagan kirish va gap bo'lagi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar (qisqasi, rost, aftidan, oxiri kabilar) kirish bo'lak vazifasida keladi. Professor B.O'rinboyevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili

darsligida kirishlar murakkablashgan sodda gap tarkibida uch xil ko‘rinishda qo‘llanishi ko‘rsatilgan: so‘z, so‘z birikmasi va gap shaklida”¹.

Demak, kirishlar tuzilishi jihatidan kirish bo‘lak, kirish birikma va kirish gaplardan tashkil topadi².

1.1. Kirish so‘zlar (yoki bo‘laklar) bir so‘zdan yoki bir bo‘lak hukmidagi so‘zlardan iborat bo‘lib, gapda kirish bo‘lak vazifasida keladi, ba‘zilari esa ma’lum gapdagina kirish bo‘lak vazifasida qo‘llanadi. Morfologik tarkibiga ko‘ra, kirish so‘zlar ma’lum bir so‘z turkumi bilan bog‘lanadi. Shunga ko‘ra, kirish so‘zlar quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

1. Ot. Ko‘rinishdagi kirish so‘zlar.

Bu turdagi kirish so‘zlarga quyidagilar kiradi: xullas, xayriyat, darvoqe, taajjub, chamasi, mayli, xolbuki modomiki, baxtimizga, aftidan, nazarida (nazarimda), odatda, har holda va boshqa.

A) kirish so‘zlar asosan bosh kelishik formasida bo‘ladi: Darhaqiqat, darvoqe, xayriyat, chamasi, shoyad, taassufki: Chamasi, kimdir chaqirmoqda, qo‘ng‘iroq chalindi.

B) ayrim otli kirish so‘zlar tarkibida uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasi bo‘lib, u qo‘shimcha o‘zakka kirishib ketadi: Rasmi, yomondan qochiladi, zamona shum bo‘lsa, yaxshidan ham qochar ekan kishi (A.Q.). ... rais ana shu kamchiliklarni bartaraf qilishga, ochig‘i, ojizlik qilmoqda (Sh.R.). Oxiri, bu cho‘qqining ustiga chiqib olibdi-da, boshqalarning ham chiqarish yo‘lini izlab, ko‘zi javdirab turibdi (O).

Ayrim ot tipidagi kirish so‘zlar jo‘nalish yoki o‘rin-payt kelishigi kelib, egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi. Bunda egalik qo‘shimchasi o‘z vazifasida keladi va shuning uchun ham uchala shaxs bilan turlana oladi.

¹ Ўринбоев Б. ҳозирги ўзбек адабий тили. Самарқанд, 2006, 137 б.

² Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Т.: Ўқитувчи, 1996, 108 б.

Bular quyidagilar: baxtinga (baxtiga, baxtingizga kabi), nazarida (nazarimda, nazaringizda kabi).

V) kirish soʻzlar joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shaklida boʻladi. Lekin bu shakllar oʻzining asl vazifasini yoʻqotadi: aksiga, haqiqatda, har holda, chamamda, odatda, aftidan, jumladan kabi. Masalan: U oʻlar holatiga yetganda, baxtiga, yer islohati boʻlib qoldi (A.Q.). Har holda, uzoq kechani oʻtkazish uchun oshandan yaxshi narsa yoʻq. Haqiqatan, kecha qishloqda boʻlib oʻtgan va boʻlayotgan ishlarga koʻzini kattaroq ochib qaramabdi. (A.Q.).

G) kirish soʻzlar koʻmakchilar bilan kelishi mumkin. Bular – baxtga qarshi, soʻziga koʻra, aytishiga koʻra, odat boʻyicha, odatga muvofiq va boshqalar.

D) kirish boʻlakning maʼnosini kuchaytirish uchun kirish soʻzlar turli belgilar bilan birga qoʻllanadi: -ki bogʻlovchisi: afsuski, modomiki, xayriyatki kabi soʻzlarga qoʻshiladi: Afsuski, vaʼdalar oʻz vaqtida bajarilmadi. Modamiki, ahvol shunday ekan, u kishining orzulariga quloq solishimiz kerak boʻladi (0). Xayriyatki (ham) Ziyodaxon kelib qoldi. Xayriyat ham, “Mubaraknoma”ni oʻqitib koʻrgan ekanman (S.A.).

2. Olmosh hukmidagi kirish soʻzlar.

Bunday kirish, soʻzlarga quyidagilar kiradi: bundan tashqari, har qalay va ravishdan oʻtgan menimcha (meningcha), sizningcha, kabi soʻzlar: - Uningcha, ish oʻz yoʻlida, sekin-asta boʻlaveradi (M.Ibr.). Demak, sizningcha, bizning millatimiz aʼlo-hazratning iltifotlari soyasida farogʻatda yashamayotgan ekanda, a? (M.I). Harqalay, u senchalik azob chekmagan boʻlsa kerak (M.Ibr.).

3. Sifat koʻrinishidagi kirish soʻzlar.

Bu turkumdagi kirish soʻzlarni toʻgʻri, toʻgʻrirogʻi, durust, tuzuk, ajab, qisqasi, soʻzsiz, shubhasiz, tabiiy, rost kabi sifat hukmidagi soʻzlar

shakllantiradi: - To'g'ri, yomon odam jazosini tortishi kerak (A.Q.).
Qisqasi, Komiljon uning xohishini payqamadi.

4. Son ko'rinishdagi kirish so'zlar.

Son hukmidagi kirish so'zlarni birinchidan, ikkinchidan, bir tomondan, kabi so'zlar tashkil etadi. Shuningdek, son tipidagi kirish so'zlar ba'zan chiqish kelishigi shaklida, ba'zan esa ko'makchi ot bilan kelishi mumkin: - Ikkinchidan, ertaga viloyat yosh yozuvchilarning konferensiyasi ochiladi (O.Yo). Sidiqjon, bir tomondan, O'rmonjonga qanday ro'para bo'lishni bilmay ... ikkinchi tomondan, uning hukm qabul qilishi umidi bilan entikib kutar edi (A.Q.).

5. Ravish ko'rinishdagi kirish so'zlar.

Ravish ko'rinishdagi kirish so'zlar nutqimizda ancha faol qo'llanilib, unga quyidagilarni kiritish mumkin: albatta, ayniqsa, dastlab, avval oxir, xolos, shukur, nihoyat, haqiqatan, umuman, aynan, xususan, asosan, zotan, vaholanki, darhaqiqat, shuningdek, har vaqtdagidek, taxmincha, aksincha kabilar. Masalan: - Nihoyat, bir kuni chiday olmay o'zi gap ochdi (M.Ibr.). Albatta, o'zaro yaxshi niyat bilan ish boshlansa, chora topilmay qolmaydi (M.Ibr.). Yolg'iz gavhardan tiniq muhabbatim bor, xolos (H.H.). Ehtimol, sen ham biror narsa tushinib qolarsan. Mayli, kiraversin, choy qo'ynglar (M.Ibr.).

6. Kirish so'zlarning katta guruhini fe'l turiga kiruvchi kirish so'zlar tashkil qiladi. Bu turdagi kirish so'zlar ham bir necha ko'rinishlarga egadir.

A) zamoni, shaxsi aniq bo'lgan fe'llar: deyman o'ylaymanki, qaytaraman, kechirasiz, ko'rasizki, bundan chiqdiki; ishonasizmi, bilasizmi, anglashiladiki, bordi-yu kabi: Bunday kirish so'zlarning ba'zilari tarkibida -ki, -mi yordamchilari, albatta, bo'lishi shart: - Otaxon, deyman,

o‘yinga ustasiz-ku, -dedi O‘rmonjon kulib (A.Q.). Bilasizmi, shu safar u mashinet men yordamchi bo‘lib yurdim (Oydin);

B) Kirish so‘z vazifasida ishon, ko‘r (ko‘ring), o‘ylab ko‘ring, qara (qarang), aytaylik, shoshma kabi buyruq fe‘l shakllari qo‘llanadi: - Aytaylik, u ham seni sevadi. Qara, qanday chehrasi issiq... Lekin, aytingchi, siz o‘zi haqiqatan ham biz bilgan odammisiz (M.Ibr). Lekin pulni ko‘p maqtab yubordim, shoshma, yerda ham xosiyat ko‘p;

Bu turdagi fe‘l shakllari qisman o‘z ma‘nosida qo‘llanmay, aytilayotgan fikrga yoki uning ayrim qismlariga eshituvchining diqqatini jalb etish uchun ishlatiladi (bu ayniqsa, deyman, bordi-yu, ko‘rasizki, qarang kabi fe‘llarga taalluqli);

V) aytgan sifatdoshiga –dek //-day qo‘shimchasining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan aytgandek fe‘li kirish so‘z o‘rnida qo‘llanadi: - Ha, aytgandek, yangi unvonlar muborak bo‘lsin...;

G) ravish yasovchi –cha qo‘shimchasining –(i)si harakat nomiga qo‘shilishi natijasida shakllangan anglashimcha, aytishlaricha, eshitishicha kabi shakllar ham kirish so‘z vazifasida keladi. Kirish so‘zlarning bunday shakllari ko‘makchi bilan ham birikib kelishi mumkin: bildirishga qaraganda, aytishiga ko‘ra (qaraganda) kabi: -Mavlano Majiddinning aytishiga ko‘ra, xazinada aqlli ikki tuman ham pul qolmabdur (U).

D) fe‘lning shunday qilib, ishqilib kabi aslida ravishdosh bo‘lgan shakllari ham kirish so‘z vazifasida keladi: Shunday qilib, gapning xulosasiga kelaylik.

Kirish so‘zlarning shunday turlari ham uchraydiki ular ma‘lum bir so‘z turkumidan tamoman ajralib ketgan. Ularning tashqi morfologik ko‘rinishidan ham biror so‘z turkumiga yaqinlashtirish, aniq bir so‘z turkumidan ajralib chiqqan deb hukm chiqarish qiyin. Bular ya‘ni, shekilli, koshki, shoyad, attang, essiz kabilardir.

1.2. Kirish birikmalar ikkidan ortiq mustaqil soʻzlarning birikishidan hosil boʻlgan kirishlardir. Ular tuzilish tarkibiga koʻra quyidagi koʻrinishlarga ega boʻladi: aniqllovchi va aniqlanmish xarakteridagi kirish birikmalar, toʻldiruvchili kirish birikma, holli kirish birikma, aralash tarkibda tuzilgan kirish birikmalar.

1. Aniqllovchi va aniqlanmish xarakteridagi kirish birikmalar.

Aniqllovchi va aniqlanmish xarakterdagi kirish birikmalar ikkiga boʻlinadi: a) qaratqichli kirish birikmalar; b) sifatlovchili kirish birikmalar. Quyidagilar gap tarkibida kirish qaratqichli birikmalarni hosil qilib sodda gaplarni murakkablashtirishga olib keladi: uning fikricha, qariyalarning aytishicha, sening baxtingga, buning ustiga, mening nazarimda, sening bilishingcha, odamlarning gapiga qaraganda. Masalan: -Bularning hammasi albatta yomon, xunuk, har biri xavf, lekin Safarovning nazarida, bulardan ham yomonroq narsa... koʻklamni qoʻldan boy berib qoʻyish (A.Q.). Uning tajribasi esa juda katta edi. Koʻrsatgan xizmatlari ham, oʻzining oʻylashicha, oz emasdi (M.Ibr).

Yuqoridagi taʼkidlaganimizdek, aniqllovchi va aniqlanmish xarakteridagi kirish birikmalarni sifatlovchi va sifatlanmish tipdagi birikmalar ham tashkil etadi. Masalan: bir tomondan, bir yoqdan, shu jumladan, bir soʻz bilan (aytganda) kabi. Bularda tomon, yoq soʻzlari koʻmakchi-ot boʻlib, bir soʻzi uni aniqlaydi. Mazmunan yetakchi soʻz bir soʻzidir. Shu bilan birga “bir soʻz bilan” kirish birikmalari barqaror birikmani tashkil qiladi.

Kirish birikma vazifasida ot kelgan taqdirda (xabarlarga qaraganda, maʼlumotlarga koʻra) unga sifatdosh yoki boshqa soʻz turkumidan ifodalangan yigʻiq yoki yoyiq aniqllovchilar bogʻlanishi mumkin. Ammo

uzoq-yaqindan qulog'iga chalingan xabarlariga qaraganda, ular o'rtasidagi gap ishq-muhabbatdan, oila qurish maslahatidan nariga o'tmagan (O).

2. To'ldiruvchili kirish birikmalar.

To'ldiruvchili kirish birikmalarni quyidagilar tashkil etadi: qisqasini aytsam, to'g'risini aytganda, deganingizdan bilsak, menga desa va boshqalar. Masalan: Rostini aytsam, siz to'g'ringizda biror narsa deya olmayman (M.Ibr). To'g'risini aytganda, bu yil saraton juda issiq boshlandi.

3. Holli kirish birikmalar.

Quyidagilar gap tarkibida kelib, ajratilgan holli kirish birikmalarni hosil etadi: boshqacha aytganda, ochiq aytganda, qisqa qilib aytganda, qisqa qilib aytishicha kabi. Bu xil birikmalarning boshqaruvchi so'zi sifatdosh yoki harakat nomidan bo'ladi: Qisqa qilib aytganda, ushbu masalani ijobiy hal qilish mumkin.

4. Aralash tarkibda tuzilgan kirish birikmalar.

Bu tarkibdagi kirish birikmalar tarkibida bir necha xil gap bo'laklari bo'lishi mumkin, ya'ni aniqlovchi va to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol, to'ldiruvchi va hol kabi: Uning gapiga qaraganda, uning aniq aytishicha va boshqalar. masalan: Choparning aytishiga qaraganda, dushman qo'shinlari tez orada daryoni kechib o'tadi.

Kirish so'z va kirish birikmalar gap tarkibida kelib turli ma'no munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi : fikrga baho berish, so'zlovchining fikrga emotsional munosabati gumon, shodlik, mamnunlik, afsus, achinish, ishonch, taajjub, fikrning manbaini ko'rsatish, fikrni ifodalash usuliga munosabat, fikrga diqqatni jalb qilish va boshqalar.

II. 1.3. Kirish gaplar ishtirokida tuzilgan murakkablashgan sodda gaplar.

Kirish gaplar asosiy gapning umumiy mazmuniga bo'lgan so'zlovchining munosabatini ifodalaydi. Kirish gaplar ham shunga ko'ra, kirish so'z va kirish birikmalar ifodalagan ma'nolarni ifodalaydi: ifodalangan fikrga baho beriladi; aytilayotgan fikrning avvalgi fikrga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi: so'zlovchining his-tuyg'ulari ifodalanadi; aytilayotgan fikrning manbai ko'rsatiladi; fikrni ifodalash usullari ko'rsatiladi: aytilayotgan fikrga so'zlovchining diqqati jalb etiladi va hokoza.

Kirish gaplarning kirish so'z va kirish birikmalardan farqi avvalo uning tuzilishida ko'rinadi, birinchidan, kirish gaplarning o'zida predikativlik munosabat bor. ikkinchidan, kirish gap ma'lum izohni kengroq, to'laroq, aniqroq ifodalaydi. Uchinchidan, kirish gap, ko'pincha ma'lum gap bo'laklari bilan kengayib keladi. Shuningdek, kirish gaplar ham tuzilishi jihatidan bir sostavli va ikki sostavli bo'ladi. Kirish gaplar yaxlitligicha ifodalanganligi sababli frazeologik gap shaklida bo'ladi. Bu ko'rinishidagi kirish gaplar quyidagi shakl ko'rinishlariga ega bo'ladi.

1) kesim shart mayli shaklida bo'ladi:

A) egasi bo'lmaydi (menga qolsa): Yaxshilik, menga qilsa, tushga kirmaydigan yaxshilik (O).

B) egasi shaklan bo'lmaydi (yo yog'ini so'rasang, o'qiganiga kelsak, qanday desam bo'larkin, to'g'risini aytsam kabi. U yog'ini so'rasang, aytaymi, dadam Yormatga kuyov bo'lmoqchi. Sen, qanday desam bo'larkin, juda yaxshi yigitsan.

V) egasi shaklan bo'ladi (men sizga aytsam va boshqalar): Mana shularni o'yladim-u, men sizga aytsam, ariza tashlashga jazm etdim (A.Q.).

2. Kirish gapning kesim buyruq fe'l shaklida bo'ladi:

A) gapning egasi bo'ladi (esim qursin kabi). Mastlik qursin, toza mashmasha qilibman, hye-hye-hye, - sovuq kuldi boyvachcha (O).

B) kirish gapning egasi rasman bo'lmaydi (quling bo'lay, tasaddug'ing bo'lay, qandingni ur, omon bo'lgur, menga qara va boshqalar)... ignaning uchiday yolg'oni yo'q, quling bo'lay, boyvachcha (O)... ikki og'iz so'zim bor, tasaddug'ingiz bo'lay, marhamat qiling (O). Qaddingni ur, yulduzlaring juft tushgan bo'lsa-chi, odam bolasi senlarni ajrata olmaydi! (O). Lekin hammasi ham, omon bo'lgurlar, udarnik yigitlar (A.Q.). Ayniqsa, mana shu besh-olti yilda boylik juda zo'rayib ketdi, xo'p deyavering (O). Bu gapingiz noto'g'ri, sizning ilmingiz eskicha ilm, endi yangicha ilm kerak. Ko'nglingizga kelmasin-ku, izvoshga eshak qo'shib bo'lmaydi (A.Q.) (kesim bo'lishsizlik shaklida).

3. Kirish gapning kesim aniqlik fe'li bilan ifodalanadi.

A) egasi shaklan ifodalanmaydi: o'zingiz bilasiz, o'zingizdan qolar gap yo'q kabi: O'zingiz bilasiz, to'rt yildan buyon bu yerda ishlayman, tinim yo'q (O).

B) gapning egasi ifodalanadi: Undoq demanglar, mana ko'rib turibsiz, jonini jabborga berib ishlayotibdi (A.Q.).

4. Kirish gapning kesimi –moqchi, yoki -gan, -day, yoxud –gan+da affikslari bilan shakllangan sifatdosh formasi orqali ifodalanadi: O'rmonjon aytmoqchi, ashaddiy binokor usta To'lagan binokorlikka ... berilib ketdi (A.Q). Ishq o'tida yongan, Jobir aytganday, uyqusiz ko'zlari qizarganday ko'rindi (H.Sh). Ikki jins bir yostiqqa bosh qo'yishi bilan, masalaning bir tomonini olib aytganda, o'tmish va kelajak naslni bir-biriga bog'laydigan halqa vujudga keltiradi (A.Q).

II. 1.4. Kiritmalar ishtirokida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.

Bu sintaktik birliklar haqida ham turli atamalar qo'llanganini ko'ramiz kiritma konstruksiyalar¹, kiritma qurilmalar², izoh gap va izoh so'z birikmalari³ kabi. Lekin turlicha atalgan bo'lsa-da, ko'pchilik adabiyotlarda uning xarakteri sintaktik vazifalari to'g'ri yoritilgan. A.G'ulomov va M.Asqarovalarning darsligida kiritma gap va kiritma so'zlar haqida so'z yuritilgan. G'.Abdurahmonov darsligida ham aynan shu bo'linish mavjud. Lekin B.O'rinboyevning darsligida esa kiritmalar gap tarkibidagi qo'llanish shakllariga ko'ra uchga, ya'ni kiritma so'z, kiritma birikma, kiritma gap turlariga bo'linadi.

Kiritma qurilmalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beradi, gapni yo'l-yo'lakay yangi faktlar bilan boyitadi. Chunki ular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik jihatdan munosabatga kirishadilar. Kiritmalar intonatsion jihatdan mustaqillikka ega bo'ladilar. Ular gapda biror so'roqqa javob bo'lmaydilar, semantik vazifa bajarmaydilar, gap bo'lagi yoki qo'shma gaplarning komponenti bo'lib ham hisoblanmaydilar. Ular asosiy gapdan anglashilgan mazmunga yoki uning tarkibidagi ayrim bo'laklarning ma'nosiga oid qo'shimcha izohlar, ma'lumotlar, ayrim tuzatishlar beradi. Ana shu o'ziga xos xususiyatlari bilan kirishlardan farqlanadi: Bolani (uyda kattalardan hech kim yo'q edi) o'zim uyg'otdim (kiritma qurilma). Menimcha, unda oz deganda yarim yillik ish bor (kirish).

1. Kiritma so'zlar ayrim so'z shaklida bo'lib, ular gapdan anglashilgan asosiy mazmunga yoki biror bo'lak ma'nosiga qo'shimcha

¹ Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1965, 193 б.; Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. Т.: Фан, 1976.

² Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Самарқанд, 2006, 140 б.

³ Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Т.: 1996, 118 б.

axborot beradi, to'ldiradi. Masalan: Onam (o'gay) meni qarg'agani-qarg'agan edi. Yengil atletika bo'yicha o'tkazilgan musobaqada Nazira Ermatova (Toshkentdan), Vali nazarov (Buxorodan), Ali Komilov (Samarqanddan) g'olib chiqdilar. Ushbu gaplardagi Toshkentdan, Buxorodan, Samarqanddan kabi so'zlar kiritma hisoblaynadi.

2. Kiritma birikmalar. Bu turdagi kiritmalar so'z birikmasi shaklida bo'lib, kamida ikki so'zdan iborat bo'ladi. Masalan: U (safardan qaytgan kishi) (aniqlovchi+aniqlanmish) juda mayda odatiy voqealarni ham qoldirmay so'zlar edi (G'.G'). Men, Buviydaga olib ketsam, -o'z qishlog'imiz, - biror kavak topilar deb o'ylagan edim (A.Q.). Ushbu gaplardagi safardan qaytgan kishi, o'z qishlog'imiz birikmalari kiritma birikmalar hisoblanadi. Har ikkala kiritma birikma ham aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida birikkan va gapdan anglashilayotgan umumiy fikrga qo'shimcha ma'lumot bermoqda.

3. Kiritma gaplar. Kiritmalar ichida eng ko'p qo'llaniladigan kiritma gaplardir. Darslik va qo'llanmalarda bu sintaktik birliklarni izoh gaplar, ilova gaplar atamaları bilan qo'llashadi. Kiritma gaplar predikativ xarakterdagi gap shaklida bo'ladi. Kiritma gaplar ham asosiy gapning umumiy mazmuniga oid bo'lishi yoki asosiy gapning ayrim bo'laklari ma'nosini izohlashga xizmat qilishi mumkin. Masalan: Otasini bir kecha qonga belangan holda zindon yoqasidan topganlarida (uni zindondan qochganlar o'ldirib ketishgan edi), Abdusamad o'n yashar, qo'rqqoq, lekin pisman, quv bola edi (A.Q.).

Kiritma gaplar quyidagi mazmun munosabatlarini izohlashga xizmat qiladi:

1) ma'lum voqea-hodisaning ro'y berish yoki bermaslik sababini: Qurbon ota uning suhbatini xushlamasa ham, - odamning yuzi issiq-hamsafar bo'lish to'g'risidagi sazasini o'ldirmadi.

2) ayrim soʻz va soʻz birikmalariga izoh beradi: izohlash orqali shu boʻlak haqida qoʻshimcha maʼlumotlar ham ifodalanadi: Qirgʻiz Oʻroz belbogʻiga mahkam chandib tugilgan bittagina soʻlakvoyni (kim biladi, buni qachondan beri saqlab kelgan) chiqarib, sekingina tashladi (O).

3) maʼlum voqea, hodisa va xususiyatlar qiyoslanadi: Bu odat (mehmonlarni yelpib qoʻyishday) xonlar, beklar zamonidan qolgan (Gʻ.Gʻ.).

4) toʻsiqsizlik ifodalanadi: Ikkinchidan, bu xizmatkorning qiziga uylanishini–qiz qanchalik chirayli boʻlmasin–oʻz gʻurur, oʻz obroʻsi uchun katta nuqson deb bilgan edi (O.).

5) maʼlum harakat-holat, predmet, xususiyatni aniqlash yoki eslatish, taʼkidlash, diqqatni jalb qilish: Bilasanmi, Yoʻlchi, bir shoir – bilmadim Soʻfi Olloyormi–shunday deganlar.

6) maʼlum harakat-holat yoki xususiyatni, predmet, shaxsni taʼriflash: Hoshim polvon esa-u chindan ham ismi-jismiga monand, durkun yigit edi-soddadillik bilan kulib javob beradi.

7) maʼlum harakat-holat, xususiyatning roʻy berish vaqti, oʻrni va shartiga koʻra izohlanadi: a) shart: Faqat, ovqatni oʻgʻillari, kelin va nabiralari bilan birlikda yeyishni (mehmonlar boʻlmaganda) oʻzi uchun shart qilib olgan (O.). b) payt: Onalari bolalari bilan toʻyga kelgan mehmon bolalarga ularning kiyimlariga yaxshi razm solingandan soʻng–tegishli muamalarda boʻladi (O.). v) oʻrni: Zingʻillaganimcha yotoqxonaga joʻnadim (yotogʻimiz koʻchaning narigi yuzidagi izvosh bozori yonida edi).

8) maʼlum harakat-holat yoki predmet, xususiyatlar haqida muallifning qoʻshimcha maʼlumoti, izohi: Navoiy qilichni qinidan sugʻurdi (qilichning birinchi va soʻnggi marta sugʻurilishi edi), dadillik bilan odim otib ketdi (O).

9) muallifning taxmini: Agar Qodirov ko‘rinib qolsa (u tulki, chiqishi ham ehtimol), sezdirib qo‘yma (H.Shams).

10) so‘zlovchining lirik chekinishi, kinoyasi; orzusi: Sening qayerda ekanligingni so‘roqlagan, bilgan xotining emas, qaynatang... oti nima edi... Zunnunxo‘ja (A.Q.).

4. Kirish va kiritmalarda tinish belgilari.

Tinish belgilari quyidagicha holatlarda keladi:

1) kirish qurilmalar gap boshida kelsa, undan keyin, gap oxirida kelsa, undan oldin, gap ichida kelsa har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: Nihoyat, Sultonmurod Hirot voqealari haqida gapirishni so‘radi (O). Yangilikka qarshi turish yaramaydi, albatta. Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor (A.Q.).

2) kiritma qurilmalar, odatda, qavs ichiga olinadi yoki tire bilan ajratiladi: O‘sha kuni edimi yoki boshqa bir kun (anig‘i esimda qolmagan) bolalar tarqalayotganda, Hirot voqelari haqiga mendan so‘radi. (S.Ayniy). Oltinchi brigadaning g‘o‘zasi-mana men hozirgina aylanib keldim-avj olmayapti (O.).

2.2. Undamlmalar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.

Murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi vositalardan yana biri undamlalardir. Undalma – soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalaydigan soʻz va soʻz birikmalaridan tashkil topgan sintaktik birliklardir. Undalmalar bosh kelishikdagi ot yoki ot maʼnosidagi soʻzlar orqali ifodalanib gapning umumiy mazmunini toʻldiradi, gapning kimga qarashli ekanligini koʻrsatib turadi. Gap tarkibida kelgan undalmalar uning boʻlaklari bilan sintaktik munosabatga kirishmaydi. Shu jihati bilan ular sodda gaplarni murakkablashtirishga xizmat qiladi.

Undalmalar asosan, bosh kelishik shaklida keladi. Bu jihatdan u egaga oʻxshaydi. Lekin undalmalar undosh intonasiyasi, pauza bilan ajralib turishi hamda kesim bilan sintaktik aloqaga kirishmasligi bilan egadan farqlanadi. Undalmalar koʻproq soʻzlovchi nutqi qaratilgan shaxsni ifoda qiladi: kechir meni, onajon, ishga koʻmilib ketdim (Ya).

Undalmalar gapning bosh yoki ikkinchi darajali boʻlaklari bilan moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqasiga kirisha olmaydi. Ammo u gapning ayrim boʻlaklari yoki butun gap mazmuniga aloqador boʻlib, gapning zarur qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ular gapning ayrim boʻlaklari va gapning umumiy mazmuni bilan oʻziga xos grammatik aloqaga kirishadi. Maʼlum gapdagi undalmaning chiqarilishi yoki hatto, oʻrning oʻzgartirilishi gapning umumiy mazmuniga taʼsir etadi, muallifning aytmoqchi boʻlgan fikri anglashilmay qoladi.

Nutqda baʼzan jonli va jonsiz predmetlarning nomlari ham undalma vazifasida keladi: Men sizlarga aytsamchi, chiroqlarim, yoshim shunchaga yetib, bunaqa kattaselni koʻrmaganman (H.N.). Qushlar-qushlar, hay qushlar, qanot qoqib kelinglar (Z.Diyor). Seni unutilmas yuragim aslo, ey Oʻrta Osiyo, Oʻrta Osiyo!

Undalmalar leksik-semantik jihatdan quyidagilar orqali ifoda qilinadi:

1. Konkret ism va familiya orqali: Men ham o'shanda sizni ovora qilgan edim-ku, Roziya! (P.Q.).

2. Kasb-hunarni ifoda qiluvchi: Xo'sh o'rtoq komandir, qanaqa mashg'ulot o'tkazamiz.

3. Mansab-amalni ifoda qiluvchi: To'qay masalasini jiddiy o'ylashimiz kerak, rais! (G'.G'.).

4. Unvonni ifoda qiluvchi: O'rtoq kapitan, topshiriq muvoffaqiyatli bajarildi (I.R.).

5. Qarindoshlik, yaqinlik, do'stlikni ifoda qiluvchi: Azonda to'qayda nima qilib yurgan edingiz, xola? (S.A.). Xotirjam bo'ling, otajon, maqsadingizga yetasiz (G'.G'.).

6. Holat, xususiyatni ifoda qiluvchi: Bilamiz, qahramon, sizni hamma hurmat qiladi.

7. Subektiv baho ifoda qiluvchi: Bilasizmi, jonginam, bir kattakon elektrostansiya faqat shu inshoot uchun tok yetkazib beradi.

8. Turli jonli va jonsiz predmetlarni ifoda qiluvchi:

Kelinglar, go'zal gullar,

Keling, oshiq bulbullar.

Shu sevgini kuylaylik,

Orom olsun ko'ngillar (Sh.R.).

9. Umumshaxsni ifoda qiluvchi: - O'rtoqlar, odamlar, xaloyiq, do'stlar orqali: O'rtoqlar, biz hozir yozning qozonini hosil bilan to'ldirsak, kuzda rohatini ko'ramiz (O.).

Undalmalar o'zbek tilida turli turkum so'zlar orqali ifodalanishi mumkin. Ular quyidagicha turkum so'zlari bilan ifodalanadi:

1) ot bilan: Bilasizmi, Ikrom, ko'klam shabodasi yurib qoldi (S.A.).

2) otlashgan sifat bilan: Xo'sh, yaxshilar, nima qilmoq darkor? (O.Yo.).

3) otlashgan son bilan: Uchinchilar, yakuniy nazoratlarga yaxshi tayyorgarlik ko'ring!

4) otlashgan sifatdoshlar bilan: Ey, sportda g'olib chiqqanlar, sizlarga shon-sharoflar bo'lsin!

5) undov bilan: Hoy, seni kutib turishibdi.

6) frazeologizm bilan: Xayr, o'g'lim, oq yo'l bo'lsin, xayr, ko'zim qorasi (H.O.).

7) bir butun holda qo'llanadigan bog'lamalar bilan: Butun dunyo tinchliksevarlari, birlashingiz!

Undalmalar tarkibiy tuzilishi jihatidan farqlanadi. Ularning tarkibi quyidagicha bo'lish mumkin:

1. Yolg'iz bir so'zdan: To'kilgandan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan.

2. Undalma undov so'zlar bilan kengayadi: Hoy qizi, vazifani bajardingmi?

3. Undalma o'z izohlovchisi bilan keladi: To'g'ri, o'rtoq Rahimjon aka, mix ham egilsa, to'g'irlab yana qoqiladi (A.Q.).

4. Undalma aniqlovchisi bilan keladi: Yo'ling oydin, olganing oltin bo'lsin, aziz o'g'lim (G'.G'.).

Bu ko'rinishdagi gaplarga ba'zan aniqlovchilar uyushgan va kengaygan holda ham bo'ladi: Ey vujudi qayg'u-alamdan iborat bo'lgan, peshonasiga azaldan sevgi yozib qo'yilgan yigit, sen bizga ravshanlik keltirding.

5. Undalmalar uyishib kelishi mumkin: Hasan, Aziz, Ibrohim, yuklarni darhol tushiringlar. Surauyo, Muhayyo, Ra'no, Muqaddas, ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas!

6. Undalmalar ba'zan takrorlanib keladi: dada-chi, dada, bugun biz poyezd-poyezd o'ynadik.

Undalamalar gapning barcha o'rinlarida kelishi mumkin, ya'ni boshida, o'rtasida va oxirida. Bu holat undalmalarning gapdagi o'rni, uning semantik vazifasi, stilistik xususiyati, gap tuzilishi va xususiyatiga bog'liq. Shunga ko'ra, undalmalardagi tinish belgilari ham o'zgarib turadi.

Agar undalmalar gap boshida kelsa, undan so'ng vergul yoki undov belgisi qo'yiladi: Og'a, ayamga xat yozibsiz-ku? (A.Q.) –Birodarlar! Hayot biz bilan!

Agar undalmalar gapning oxirida kelsa, undalma old tomondan, vergul bilan ajratiladi: Sizni oldinroq siylasak bo'lar ekan, Ashirali aka (G'.G').

Agar undalmalar gap ichida kelsa, ular har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: Bu yerda, Yo'lchi, kimni so'radingiz? (O).

Ko'rinadiki, undalmalar gapning asosiy bo'laklari bilan sintaktik aloqa kirishmaydi. Shu sababli ham ular yozuvda tinish belgilari bilan, talaffuzda esa ohang bilan ajaralib turadi. Mana shu xususiyatlariga ko'ra undalmalar sodda gaplarni murakkablashtiradi va murakkablashgan sodda gaplarga aylanadi.

2.3. Ajratilgan bo‘lakli qurilmalar ishtirokida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.

Ajratilgan bo‘laklar gapning muhim uslubiy vositalaridan biridir. Chunki fikrni sodda va ta’sirli ifodalash usullaridan ajratilgan bo‘laklardan foydalanishdir. Shuning uchun ham ajratilgan bo‘laklar masalan grammatika bilangina emas, uslub, ohang, tinish belgilari masalalari bilan ham bog‘lanadi. Ajratilgan bo‘laklar o‘zining grammatik belgisi, mazmuni va vazifasiga ko‘ra, sintaksisning maxsus sohasi -murakkab gap sintaksisining o‘rganish obyekti¹.

Gap tarkibidagi ajratilgan bo‘laklar o‘zining mazmuni, vazifasi va shunga muvofiq ohangi bilan ajralib turuvchi alohida sintaktik qurilmadir. Ajratilgan bo‘lak mazmunidagi o‘ziga xos xususiyat shundaki, unda yarim predikativlik, ma’lum darajada hukm ifodalanadi. Ayol, bolaning oldiga kelib va achinib, boshini siladi (P.T.). Bugun kun bo‘ladi, ravshan va bedog‘ (H.O.).

Yuqoridagi ikki gapda ikkitadan hukm ifodalangan. Birinchisida ayolning bola oldiga kelishi va achinishi hamda ayolning bola boshini silashi; ikkinchisida-bugun (yaxshi)kun bo‘lishi hamda bu kunning ravshan va bedog‘ bo‘lishi. Ikki jumladagi ikki xil hukm, xususiyatiga ko‘ra, bir xil emas bu hukmlarning biri asosiy hukm bo‘lib, ikkinchisi yarim hukm, yarim predikativlikdir. Ajratilgan bo‘laklarda ana shunday yarim hukm, yarim predikativlik ifodalanadi. Bu hukmning to‘liq bo‘lmasligiga sabab shuki, ajratilgan bo‘laklar asosiy hukmga tobe bo‘ladi, uni izohlaydi, aniqlaydi, to‘ldiradi. Bundan tashqari, ajratilgan bo‘laklarda hukmning to‘liq bo‘lishi uchun grammatik asos (o‘z egasining bo‘lmasligi) ham, ohangga xos asos (gapga xos ohangning bo‘lmasligi) ham mavjud emas. Ana shu asoslarga ko‘ra ajratilgan bo‘lakli gaplar qo‘shma gapni tashkil

¹ Абдурахмонов Ғ. Юкоридаги асар, 47 б.

eta olmaydi. Shu bilan birga, ajratilgan bo‘laklar ikkinchi darajali bo‘laklardan ham farqlanadi. Shuning uchun ajratilgan bo‘lakli gaplar oddiy sodda gap bo‘lmay, murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiradi.

Ajratilgan bo‘lakli qurilmalar ishtirokida shakllangan murakkablashgan sodda gaplarga ajratilgan qurilmalar o‘z xarakteri, ma‘nosi, ifodalanishi, vazifasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ajratilgan bo‘lakli murakkablashgan sodda gaplar.
2. Sifatdosh o‘ramlar bilan murakkablashgan sodda gaplar.
3. Ravishdosh o‘ramlar bilan murakkablashgan sodda gaplar.
4. Harakat nomli tizimlar bilan murakkablashgan sodda gaplar.
5. Izoh qurilmalar bilan murakkablashgan sodda gaplar.

Gapda asosan, ikkinchi darajali bo‘laklar ajratiladi. Shunga ko‘ra ular quyidagicha bo‘linadi: Ajratilgan izohlovchi, ajratilgan qaratuvchi va ajratilgan sifatlovchi (ajratilgan aniqlovchi), ajratilgan hol, ajratilgan to‘ldiruvlar.

1. Ajratilgan izohlovchilar. Izohlovchilarda ajratilish hodisasi aniqlovchining boshqa tiplariga qaraganda ko‘p uchraydi:

1) Ajratilgan izohlovchi izohlanmishdan keyin kelib, uning ma‘nosini konkretlashtirishga, shunga qo‘shimcha ma‘no izoh berishga, biror xarakterli tomonini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan: Talabalar bugungi tadbirda N.Mahmudovga, tilshunos olimga, minnatdorchilik bildirishdi.

2) Ajratilgan izohlovchi izohlanmish bilan son va kelishik formalari jihatidan moslashadi: Karimni, akamni, ...; Karimga, akamga, ..., ularga, bolalarga, ... kabi. Karim, ukam, institutda tahsil olmoqda.

3) Kishilik olmoshining aniqlovchisi bo‘lib qo‘llangan izohlovchi ajratilgan bo‘ladi: Biz, talabalar, va‘damizning ustidan chiqamiz.

4) Ajratilgan izohlovchi maxsus yordamchi (ya'ni so'zi) bilan ham qo'lanishi mumkin: Difterait, ya'ni bug'ma, bolalarda ko'p uchraydigan kasallikdir.

5) Ajratilgan izohlovchi va izohlanmishning o'zaro sintaktik aloqasi tenglanishdir. Bular shu tomoni bilan uyushiq bo'lakka o'xshasa ham, lekin uyushiq bo'lakdan tamoman boshqa hodisadir. Chunki uyushiq bo'laklardagi sanash intonasiyasi bularda yo'q.

6) Yoyiq izohlovchilarda ajralish xususiyati ancha kuchli. Masalan: Obidov, korxonamizda bosh muhandis, hammaga o'rnak bo'ldi.

2. Ajratilgan qaratuvchilar. Qaratuvchining ot yoki ot vazifasidagi so'z bo'lishi, odatda, ajratilgan qaratuvchining ham shu tarzda bo'lishini talab qiladi, ularning har ikkisi qaratqich kelishigida bo'ladi. Asli bunda ajratilgan izohlovchining bir ko'rinishi kelib chiqadi: Oshpazning, Mamatqulning, qo'li gul ekan.

3. Ajratilgan sifatlovchi. Bu ko'rinishdagi ajratilgan bo'laklar boshqa bo'laklarga qaraganda kamroq qo'llanadi. Bular ko'proq she'riyatda, so'z tartibining o'zgarishi oqibatda vijudga keladi. Masalan: Kamzul kiydim, tirinka. Seni sevdim surunka (Qo'shiqdan; tirinka kamzul).

4. Ajratilgan hol. Bunda gapning bo'lagi ma'nosi juda ham konkret bo'lmagan, umumiy bo'lgan so'z bilan ifodalanadi, shu so'zga ajratilgan bo'lak keltirilib, ma'no avvalgiga nisbatan konkretlashtiriladi: Yozda, qovun pishig'ida, havo kechasi ham dim bo'ladi.

5. Ajratilgan to'ldiruvchi. To'ldiruvchilarning ajratilishi ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: 1) olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchining ma'nosini konkretlashtirishda, uning qo'shimcha belgilarini ko'rsatishda uchraydi. Masalan: Kecha-kunduz seni, vafodorimni, o'ylayman. 2) ajratilgan to'ldiruvchilar ot bilan ifodalangan to'ldiruvchini ham izohlash mumkin: Nasihatimni, otangning so'zini, esingda tut. Karvonboshi

bo'sag'a ustiga qo'yilgan qo'lni-amir qo'lini-ikki qo'llab ushlab ko'ziga surtdi (S.A.). Unsun uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish, motam (O). (vositali to'ldiruvchi).

Uyushiq bo'laklar umumlashtiruvchi so'zga ega bo'lganda uyushiq bo'laklar ajratilgan izohlovchi hisoblanadi. Masalan: Ikkalamiz Tolib va men-bugun navbatchi bo'ldik.

2.4. Sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar bilan murakkablashgan sodda gaplar.

Sodda gap tarkibidagi turli sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart maylidagi fe’lli o‘ramlarni kiritish natijasida bu gap qurilishi, shakl va mazmun jihatidan murakkablashishi va bunday o‘ramlardagi ikkinchi darajali predikatsiyasiga ko‘ra gapda predikativ jamlanish yuzaga kelishi mumkin. Bunday tizmlardagi, garchi ikkinchi darajali bo‘lsa-da, predikatsiya ayni tizimlarni ma’lum darajada ergash gap bilan yaqinlashtiradi. Ba’zi adabiyotlarda sifatdosh o‘ramlarni aniqlovchi ergash gap deb qarab kelishmoqda. Lekin ular tarkibida o‘z egasi bo‘lmaganligi bilan ergash gaplardan farqlanadi.

Sifatdoshning turli shakllari turli mazmun munosabatlarini hosil qilish uchun xizmat qiladi:

1) payt munosabatini ro‘yobga chiqishda sifatdoshning o‘rin-payt kelishigida kelgan yoki ko‘makchi hamda ko‘makchi vazifasidagi so‘zlar bilan (sayin, beri, buyon, keyin, zamon, so‘ng) yoxud ekan to‘liqsiz fe’li bilan birikkan shaklda qo‘llanadi. Masalan: Gulnorni jo‘natgandan so‘ng, ancha vaqt xayol surib o‘tirdi (O.). Ziyodaxon xamir qorar ekan, unga ko‘z qirini tashlab kulimsiradi (A.Q.).

2) shart munosabatini ro‘yobga chiqishda sifatdoshning o‘rin-payt kelishigi bilan qo‘shilgan shakl ishlatiladi: Ertaroq kelganimda, uni uchratar ekanman.

3) to‘siqsizlik munosabatini ifodalashda sifatdoshning qaramay ko‘makchisi, holat ifodalaganda, holda yordamchi so‘zi bilan birikkan shakli ishlatiladi: Shunga qattiq uringaniga qaramay, o‘jar o‘rtog‘iga fikrini tushuntira olmadi.

4) sabab mazmunida sifatdoshning chiqish kelishigidagi shakli yoki uchun va boshqa ko‘makchilar bilan birikkan shakli qo‘llanadi: Darsga

kech qolganligi sababli, Salim o'qituvchining qanday vazifa topshirganini bila olmadi.

Ravishdoshli birikmalar orqali murakkablashgan soda gaplar (ravishdosh o'ramlar).

Ravishdosh o'zining fe'llik xususiyatlariga ko'ra gap bo'laklarini – to'ldiruvchi yoki holni boshqarib, kengayib kela oladi. O'ziga oid so'zlar bilan kengayib ravishdoshlar ravishdoshli birikma deyiladi. Ravishdoshli birikma mazmunan hol guruhiga, ma'lum mazmunni bo'rtirib ifodalash, alohida ohang bilan talaffuz etilib, boshqa gap bo'laklaridan to'xtam bilan ajralib turganligi uchun, ular ajratilgan bo'lak sanaladi.

Ravishdoshli birikma shaklidagi ajratilgan hollar hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanadi.

Ravishdosh – bu ikkinchi darajali kesimdir. U ma'lum bir eganing harakat-holatini ifodalaydi. Ammo bu harakat holat boshqa, asosiy harakat-holatni turli tomondan izohlaydi, to'ldiradi. Shunga ko'ra ravishdosh, asosiy fe'lga o'xshab ma'lum bo'laklar (to'ldiruvchi, hol) ni boshqarib keladi. Shuning uchun ham ravishdosh birikma ham mazmunan, ham grammatik tomondan, ohangiga ko'ra, ma'lum mustaqillikni tashkil etadi. Shuning natijasida gapda ikki markaz vujudga keladi: bu markazlarning biri tobe ikkinchisi hokim bo'ladi. Ravishdoshli birikma tobe markazni tashkil etadi (shuning uchun ko'p vaqt ravishdoshli birikmani alohida gap bilan almashtirish ham mumkin bo'ladi).

Ravishdoshli birikma gapning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkin. Har uch holatda ham mazmunni bo'rttirib, ayirib, diqqatni shu mazmunga jalb qilib ifodalaydi. Masalan: Bechoraga zulm aylab, qo'l-bo'ynini bog'labsan, har sari chekib-sudrab, o'ldirgani chog'labsan (Furqat). Qahraton qishda yalangoyoq muz bosib, saratonda qizg'in qum

kechib, issiqda, sovuqda obdon pishgan yigitni ham kun hiyla betoqat qilgan edi.

Ravishdoshli o‘ramlar gapda ma’lum mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Bu mazmun ravishdoshli birikmaning aniq ma’nosini va asosiy fe’l kesim bilan qanday munosabatga kirishuviga qarab belgilanadi. Bu mazmun munosabatlari quyidagicha:

1) harakat-holatning qay tarzda ro‘y berishi: Sho‘rlik ayvondan yo‘lakka qarab, quchog‘ini ochib, hovliqib yugirib kelib, bo‘ynimdan quchoqlab oldi (G‘.G‘.).

2) bir harakat ikkinchi bir harakatga qiyoslanadi: Bahslashuvchilar ba‘zan munozara alangasida o‘zlarini unutib, bir-biriga dog‘ol iboralar aytishar. Ba‘zan burgutday hurpayib, bir-birlariga chang solmoqqa tayyorlanganday qiziq bir vaziyatda bir zumgina qotishardi (O.).

3) harakat-holatning ro‘y berish payti: Eshikni mahkam yopib, deraza orqali hovliga ko‘z tashlab, so‘ng o‘tirdi (R.Fayz).

4) harakat-holatning ro‘y berish sababi: Qiz, fikrga cho‘mib, mulla Burxonni hayojon ichida ko‘rib, yana gapirishga kirishibdi (S.A.). Otasi o‘lgandan keyin, madrasani tugata olmay, qishloqqa qaytishga majbur bo‘lgan ekan (S.A.).

Odamlardan tinglab hikoya, o‘sar edi shoirda g‘oya (H.O.).

5) harakat-holatni bajarishdan maqsad: Kelibman, bir dimog‘im chog‘ etay deb (Furqat).

6) ayrim hollarda ravishdoshli birikma asosiy kesimdan anglashilgan voqea, hodisa, holat bilan barobar ro‘y beradigan, o‘ziga ancha mustaqil bo‘lgan voqea, hodisani ifodalaydi. Bu turdagi ravishdosh o‘ramlar asosiy gapning kesimiga tobe bo‘lmasligi mumkin. Ammo bu mantiqiy mustaqillik bilan bunday ravishdoshli birikmalar mustaqil sodda gap ham bo‘lmaydi va asosiy gap bilan qo‘shma gapni ham tashkil eta olmaydi,

chunki; a) ularning tarkibida alohida ega bo'lmaydi; b) qurilma tobe shakl-ravishdosh bilan tugallanadi. Masalan: asrlarning qayg'usin qarg'ab, Shodlik va baxt kuyini chaldim (H.O.). Qona –qona shulalardan ichib, Erib oqqan suvlardan kechib, G'unchalarning kuylagin yechib, Hayot berar cho'llarga bahor (H.O.).

Ravishdoshli birikmadan anglashilgan harakat-holatning ro'y berish payti boshqaruvchi fe'ldan anglashilgan harakat-holatga nisbatan, oldin, keyin va bir paytda ro'y berishi mumkin:

A) so'ng ro'y beradi: Ot ustida ko'p yurmay, Qiyinchilik kun ko'rmay, Er kishi hech mard bo'lmas. Uzoqdan kelayotgan qorani ko'rib, otining jilovini biroz tortib qo'ydi.

B) bir vaqtda ro'y beradi: Xoxolab kula-kula, qiziq bir narsa to'g'risida vaysasha-vaysasha, dala tomon yo'l olindi.

V) oldin ro'y beradi: Bekatga yetguncha, u yoq-bu yoqdan so'zlashib bordik.

Gap tarkibida ravishdosh o'ramlar ham uyushgan holda kelishi mumkin: Ikki do'st kulbaning eshigini zich bekitib, goh Yo'lchining fazilatlaridan sekin-sekin so'zlashib, goh o'zini tuta olmay, achchiq-achchiq yig'lab, kun qorayguncha o'tirishdi (O.).

Ravishdoshli birikmalar shakllanishlari, tarkibi bilan emas, to'xtamiga ko'ra ham ergash gaplarga o'xshaydi. Ergash gaplar kabi, ular o'rinlashishi va mazmuni bilan ma'lum darajada mustaqil bo'lib, ohangiga ko'ra ajralib ham turadi. Bu bilan oddiy so'z birikmalaridan ham ajralib turadi. So'z birikmasidan farqli o'laroq ravishdoshli birikmalarda ma'lum darajada hukm, predikativ aloqa bo'ladi. Ammo tarkibida o'z egasi bo'lgan ravishdoshli qurilmalargina ergash gap sanaladi, ularda oddiy ergash gaplar kabi nisbiy fikr tugalligi bo'ladi, tarkibida ega-kesim aloqasi-predikativ aloqa mavjud bo'ladi. masalan: Sochlarim tikka bo'lib,

etlarim jimirlab ketdi-ergash gapli qo'shma gap. Kundan-kun qo'lni qo'lga berib, ulug' yo'limiz topmoqda kamol. – ravishdosh birikmasi sodda gap.

Harakat nomli tizimlar va ajratilgan ko'makchilar bilan murakkablashgan sodda gaplar.

Harakat nomli tizimlar ham muayyan gapning nominalizasiya maqsadidagi ko'chimdan iborat. Bunday ko'chimda mustaqil gapning gap bo'lmagan tizimga aylanishi barobarida depredikatsiya (predikativlikning susayishi) yuzaga keladi: mustaqil gapda mavjud bo'lgan predikativ mazmun sezilarli darajada kamayib, u ikkinchi darajali predikatsiyaga aylanadi. Harakat nomi otga juda yaqin bo'lmaganligi uchun bunday tizimda ikkinchi darajali predikatsiya ham kuchsiz bo'ladi. Ularda ifodalangan mazmun munosabati asosiy mazmun munosabati tarkibiga biror mazmuniy uzv sifatida kiradi va shu tarzda ikki propozatsiyaning qo'shiluvi amalga oshadi. Bunday holat ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda yuz beradi: "Ikromjon Toshkentga ketadi", - degan edi rais. Rais Ikromjonning Toshkentga ketishini aytdi.

Ma'lum ko'makchili so'zlar bilan boshqarilgan gap bo'laklari gapdagi o'rniga, o'ziga oid so'zlar bilan kengayib kelishiga, ifodalanayotgan fikrga bo'lgan umumiy semantik munosabatiga ko'ra ajratilishi mumkin. Ko'makchili birikmalarning ajratilishida hamma ko'makchilar ham vosita bo'lavermaydi. Faqat ma'lum bo'lakning mazmunini alohida ifodalashda xizmat qiluvchi ko'makchilargina bu vazifada qo'llanishi mumkin. Ular quyidagilar: tashqari, qaraganda, ko'ra, kabi, singari, o'rniga, ustiga, bilan birga, qarshi, bo'yicha, binoan, tufayli, muvofiq, qaramay (qaraganda, qaramasdan) kabi.

Ajratilgan ko'makchili qurilmalar mazmunan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. O'zi ifodalagan mazmunni boshqa gap bo'laklarining mazmunidan ayrib, bo'rttirib, diqqatni shu bo'lakka jalb qiladi.

2. Ajratilgan ko'makchili gaplar mazmunan qisqartirilgan gapga o'xshaydi. Chunki ular asosiy gap mazmuniga aloqador bo'lgan qo'shimcha bir mazmunni ifodalaydi. Ammo ajratilgan ko'makchili birikma grammatik jihatdan gap bo'la olmaydi. Misollar: Ammo qiz, yalt etib so'ngan yulduz kabi, bir onda ko'zdan g'oyib bo'lgan edi (O.). "Unsiya"da, Navoiyning xonasida, uning har vaqtdagi yaqinlaridan tashqari, shoirlar, olimlar bor edi (O.). Umrining ko'pini parhez bilan kechirgan tabib, soqolimning oqiga qaramay, kaltakday mahkam edi (O.).

Ko'makchili ajratilgan bo'laklar ajratilgan bo'laklardan, ergash gaplardan ham farqlanadi. Qiyoslang:

Anvar ularning so'ziga qarshi mashul bir vaziyat saqlagan holda bosh qimirlatib supaga ketdi. – ravish holi.

Oy, suv betida qalqib borayotgan tarvuz palasi singari, bekinmagan o'ynab, goh ko'rinadi, goh yashirinadi. – Achratilgan ko'makchili birikma.

Shuni hisobga olish kerakki, ko'makchi bilan kelgan so'zlarning ajratilishi asosan ularning o'zlariga oid so'zlar bilan kengayib kelishiga, kesimga nisbatan uzoqroq o'rinda o'rinlashishiga (kesimdan qancha uzoqlashsa, ajralish mazmuni shuncha aniq bo'ladi) va muallifning ifodalayotgan ma'noni bo'rttirish, boshqa bo'laklardan ajratib ko'rsatish niyatiga bog'liq. Ana shunday sharoit bo'lmaganda, ko'makchili bo'laklar ajratilmay qolish mumkin:

Ajratilmagan: Shoir yostiqa suyangan holda tarix mutolaa qilardi.
Ajratilgan: Nuri oq ro'molini yuziga tushirib, boshini quyi solgan holda, sal burilib o'tirdi (O.).

Izoh qurilmalar bilan shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.

Ajratilgan izohlar, sintaktik vazifasiga ko‘ra, izohlanmish so‘zlarga teng bo‘lib, ular qanday vazifada bo‘lsa, bular ham shu vazifada keladi. Shunga ko‘ra ajratilgan izohlar to‘rt turga ajratiladi: ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan to‘ldiruvchilar, ajratilgan hollarga bo‘linadi.

Ajratilgan izohlovchilar o‘zbek tilida keng qo‘llanadi. Sababi izohlovchilarning grammatik jihatdan, boshqa bo‘laklarga nisbatan, ancha mustaqil bo‘lishidir. Masalan: Ichkarida yana ikki xotin bor edi: biri – o‘rta yoshlardagi cho‘tir xotin-tikka turib O‘rmonjonga bir narsa diyayotgan ekan-u, Siddiqjonni ko‘rib, gapdan to‘xtadi, ikkinchisi – bir ko‘zi g‘ilay, yoshgina juvon, kiraverishda cho‘nqayib o‘tirar edi (A.Q.). Men, faqir, bu ishdan yolg‘iz bexabar qolibman.

Ajratilgan izoh aniqlovchilar o‘zidan oldin kelgan boshqa bir aniqlovchining ma’nosini izohlab keladi. Masalan: Uning, sherandom bo‘ylik qilichbozning, bir vaqtlar bahodirona jussasi juda zaiflashgan (o.).

Bu jumladagi aniqlovchi (qilichbozning) o‘zidan oldin kelgan aniqlovchi (uning) ning kim ekanligini izohlab kelayotir. Bu xil aniqlovchi o‘zidan oldin bo‘lgan so‘zni izohlabgina qolmay, uni bo‘rttirib, diqqatni o‘ziga tortadi va uni gapning boshqa bo‘laklaridan ajratadi. Shu sababli o‘ziga xos ajratilgan ohang bilan talaffuz etiladi.

Ajratilgan aniqlovchilarning bu turi o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi:

1. Ajratilgan aniqlovchi aniqlanmish otga emas, boshqa aniqlovchiga oid bo‘lib, uning ma’nosini ifodalaydi.
2. Har vaqt izohlanmish so‘zdan keyin keladi.

3. Izohlanmish bilan ajratilgan bo‘lak o‘rtasida to‘xtam bo‘lsa ham, gapning so‘nggi bo‘lagi aniqlanmish –ot bilan ajratilgan bo‘lak o‘rtasida to‘xtam bo‘lmaydi, so‘nggi so‘z bilan umumiy ohangga ega bo‘ladi. Shu sababli ham bu xil ajratilgan aniqlovchilar o‘zidan oldin kelgan aniqlanmish – otdan hech qanday ishora bilan ajratilmaydi. Masalan: O‘sha otga mana bu bolaning, Xudayberdining ishq tushib qolgan ekan (M.A.).

Agar ajratilgan aniqlovchi bilan so‘nggi bo‘lak orasida to‘xtam bo‘lsa, aniqlovchidan so‘ng vergul qo‘yiladi: Ularning, tirishqoq talabalarining, yagona maqsadi o‘qishdan iborat.

Ajratilgan izoh to‘ldiruvchilar. Mavhum ma’noli yoki izoh talab etgan to‘ldiruvchi ham o‘zining izohlovchi bo‘lagi bilan kelishi mumkin. Bunday ajratilgan bo‘lak shaklan to‘ldiruvchi bo‘lib, mazmunan o‘zidan oldingi to‘ldiruvchining ma’nosini izohlaydi, diqqatni ana shu bo‘lakka jalb etadi. Bunday ajratilgan bo‘lak alohida ohang va to‘xtam bilan talaffuz qilinadi. To‘ldiruvchilarning har ikki turida ham ajratilgan izoh bo‘laklar bo‘ladi:

1) Ajratilgan vositasiz to‘ldiruvchilar: Karvonboshi bo‘sag‘a ustiga qo‘yilgan qo‘lni – amir qo‘lini-ikki qo‘llab ushlab ko‘ziga surtti (S.A.).

2) Ajratilgan vositali to‘ldiruvchilar: Fursating bormi, qaynatangdan, Zunnunxo‘jadan, so‘rab kelganmisan, - dedi (A.Q.). Unsun uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish, motam! (o.).

Ajratilgan izoh hollar. Ajratilgan izoh hollar, odatda, boshqa bir holdan so‘ng kelib, o‘zidan oldingi holning ma’nosini izohlaydi, aniqlaydi; izohlabgina qolmasdan, izohlanayotgan so‘zning ma’nosini bo‘rttirib, boshqa gap bo‘laklarining ma’nosidan ajratib ko‘rsatadi: Qishda, dalada ish yo‘q kezlarda, kitob o‘qiydi (H.G‘.). Ko‘kda, daraxtlar ustida, g‘uj-g‘uj yulduzlar yonadi (O.).

Ajratilgan izoh hollar nutqda keng qo'llanadi. Ayniqsa, o'rin va payt holining ajratilishi boshqa xil hollarga nisbatan ko'proq uchraydi.

1. Ajratilgan izoh o'rin holi: U yerda, olomon orasida, bir necha suvori otlardan tushayotgan edi (M.Ism.).

2. Ajratilgan izoh payt holi: Bugun, darsdan keyin, maktabda otanalar yig'ilishi chaqirilgan edi (S.Z.).

3. Ajratilgan izoh ravish holi: Yillar mana shu xilda, osoyishta, o'tar edi (A.Q.).

4. Ajratilgan izoh maqsad holi: Kelibman, bir dimog'im chog' etay deb, Ko'ngilni dard-u g'amdan sog' etay deb (Furqat).

Ajratilgan izoh gaplar: Ayrim gaplar mazmunan ma'lum gap tarkibidagi biror bo'lakni izohlab, aniqlab kelishi mumkin. Bunday gaplar o'zi izohlab kelgan bo'lakdan so'ng bevosita keladi, ularning ayrimlari asosiy gap bilan birga kelib (birikib), qo'shma gapni tashkil eta olmaydi. Masalan: Xotini, ranggi oppoq, ko'zlarini katta-katta ochib, unga vahimali qaradi.

Bu murakkab gap tarkibidagi ranggi oppoq ajratilgan gapi xotini so'zining ahvolini tasvirlaydi. Shu sababli ham bu xil izoh gaplar murakkablashgan sodda gaplarni hosil qiladi.

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TADBIQI

3.1. Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida kirish va kiritmalarning berilishi.

Maktab darslik va dasturlarida gap bo'laklari bilan sintaktik munosabatga kirishmaydigan birliklar sifatida undalma, kirish va kiritmalar yuzasidan ma'lumot berish rejalashtirilgan. 5-sinf dasturi va darsligida undalmalarni o'tish rejalashtirilgan va unga 3 soat ajratilgan. 5-sinf dasturi va darsligida undalmalarni o'tish rejalashtirilgan va unga 3 soat ajratilgan. O'quvchilar bu mavzuni o'tish jarayonida gap bo'laklari bilan sintaktik birliklar (undalma) yuzasidan dastlabki ma'lumotlarni oladilar va dastlabki tushunchalarga ega bo'ladilar.

Maktab dasturining 8-sinflar uchun belgilangan o'quv rejasida esa kiritmalarga 4 soat ajratilgan. O'quvchilar, avvalo, gap bo'laklari bilan sintaktik munosabatga kiritilmaydi sintaktik birliklar haqida ega bo'ladilar. Darslar davomida o'quvchilar kirish va kiritmalarning umumiy xususiyatlari, ularning o'zaro farqlarini ajratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Kirish va kiritmalarning nepbkbib jihatidan turlari: ya'ni kirish so'z, kitish birikma, kirish gap; kiritma so'z, kiritma birikma, kiritma gaplar yuzasidan tayanch bilimlarga ega bo'lgach, ma'lum topshiriqlarni bajarish jarayonida mavzu yuzasidan talab darajasidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Kiritmalarning gapdagi o'rni, vazifasi yuzasidan tegishli ma'lumotlarni egallaydi.

3.2. Mavzu yuzasidan ochiq dars ishlanmasi.

Dars mavzusi: Gapda kiritmalar.


Darsning maqsadi: gapda bo‘laklar bilan sintaktik munosabatga kirishmaydigan sintaktik birlik bo‘lgan kirish va kiritmalar haqida, ularning gapdagi o‘rni, vazifasi, gap bo‘laklaridan farqli tomonlarini o‘rgatish va tasavvur hosil qilish.

Dars metodi: aqliy hujum, savol-javob, suhbat.

Darsda foydalanadigan jihozlar: kirish va kiritmalar aks ettirilgan ko‘rgazmali materiallar, tarqatma materiallar, imkon darajasida AT.

Dars turi: o‘quvchilarga mavzu yuzasidan yangi tushuncha va malakalar hosil qilish.

Yangi mavzu bayoni: dars jarayonida gap bo‘laklarining gapdagi vazifalari haqida to‘xtalib, kiritmalarni ularga qiyoslab tushutiriladi. Ular gap bo‘laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmasligi, faqat ular gapning umumiy mazmuni bilan bog‘liqligini o‘quvchilar tushunib oladilar. Bularni bayon qilishda o‘qituvchi avvaldan tayyorlangan ko‘rgazmali materiallardan, ularga aks etgan misollardan o‘rinli foydalanadi va bo‘laklar bilan kiritmalarning farqini tushutiradi.



Yangi mavzu yuzasidan mustahkamlash mashqlari.

O'qituvchi doskaga mavzuga oid gaplar yozadi.

Topshiriq: quyidagi gaplardan kirish va kiritmalarni toping va ularni izohlang:

1. Ertaga tog'am kirib kelsa, ko'ziga qaysi yuz bilan qaraysan, benomus! 2. Albatta, Kimsan akasi bo'lgandaku: to'yga o'zi bosh bo'lardi-ya! 3. Birinchidan, o'sha xalqqa hurmatsizlik. Ikkinchidan, o'sha xalqdan o'zini ustun qo'yish. 4. Afsuski chiroq ko'targan odam ko'p qoqiladi... 5. To'g'ri, odamzot qonidan shayton vasvasasi aylanib yurishi-bor gap. 6. Buni qaranki, mehmonlar shu tartibda o'tirib qoldi... 7. Otam (biz u kishini ada derdik) o'z mehnati bilan kun ko'radigan... kishi edilar. 8. Marja (aslida oti Marusya ekan) Oyimning gapiga ancha tushunadigan bo'lib qolgan ekan. 9. Bir kuni (birinchi kursda o'qir edik) baqaterak tagida xayrlashib ketdik. 10. Men 1950 yilda (qovun pishig'ida) tug'ilganman.

Guruh bilan ishlash.

Xonadagi o'quvchilar uch guruhga ajratiladi va har bir guruh nomlanadi (masalan, "Bilimdonlar", "Zukkolar" kabi). Guruhlar yuqoridagi gaplar yuzasidan topshiriqlarga javob beradilar va baholanadi.

Shundan so'ng o'qituvchi yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash maqsadida guruhlariga quyidagi savollarga javob berishni so'raydi.

1-savol. Ga p bo'lagi bilan kiritmalarning farqini ayting.

2-savol. Kirishlar qanday sintaktik birlik.?

3-savol. Kiritmalar haqida ma'lumot bering.

4-savol. Gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaslikni qanday tushunasiz?

5-savol. Kiritmalar gapda qanday mazmun munosabatlarini anglatishga xizmat qiladi?

O'qituvchi guruhlarining javoblarini eshitadi, xulosalaydi, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarning ishi va javoblari baholanadi.

Uyga vazifa: 76-mashq.

XULOSA

Ushbu sintaktik birliklarni o'rganish bizga quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon yaratdi:

1. Sodda gaplarning murakkablashishi holatini turli olimlarimiz har xil atamalar bilan nomlashib kelishgan: murakkab gap, murakab gap konstruksiyasi, murakkablashgan sodda gap, murakkablashgan gaplar kabi. Chunki bu gap turi sodda gapning turli xil til birliklari vositasida murakkablashishi natijasida hosil bo'ladi. Ya'ni u qo'shma gap darajasiga yetmaydi, sodda gapdan esa tarkibi va fikr to'liqligi bilan farqlanadi. Shuningdek, faqat sodda gap murakkablashishi xususiyatini kasb etadi

2. Tilda ma'lum bir tizim mavjudki, u hamma vaq soddadan murakkabga, quyidan yuqoriga bir xillikni ta'minlashga harakat qiladi. E'tibor qilsak: so'z birikmasi sodda va murakkab, gap bo'laklari ham sodda va murakkab ko'rinishlarga ega. Shuningdek, qo'shma gap ham o'zining murakkab ko'rinishiga ega. Shularni inobatga olgan holda sodda gapning murakkablashishi hodisasini "murakkablashgan sodda gaplar" deb atash o'rinlidir. Ushbu ta'rif A.G'ulomov, M.Asqarova va B.O'rinboyevlarning qarashlariga to'g'ri keladi va shunday deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

3. Ushbu bitiruv ishimizda ushbu murakkab sintaktik birliklarni o'rganib, olimlarimiz fikrlarini inobatga olib, o'rganayotgan obyektimizni "murakkablashgan sodda gaplar" deb nomlash o'rinli bo'ladi deb hisobladik va ishda barcha o'rinlarda shu atamasini qo'llashni lozim topdik.

4. Murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi grammatik birliklar haqida ham turli qarashlar mavjud. Bir guruh olimlar murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi vositalarga uyushgan bo'lak, ajratilgan bo'lak, undalma va kirish bo'laklar ishtirokida

shakllangan gaplarni murakkablashishi xususiyatiga ega deb hisoblashadi. Boshqa guruh olimlar esa murakkablashgan sodda gaplarni shakllantirishda asosan ajratilgan bo‘laklar, undalma, kirish va kiritmalar muhim o‘rin tutadi deb hisoblashadi.

5. Uyushgan bo‘laklar o‘z nomi bilan uyushgan bo‘lak hisoblanib u gap tarkibida ma’lum bir vazifani bajaradi va ma’lum bir so‘roqqa javob beradi. Shuningdek, gap tarkibida boshqa bo‘laklar bilan sintaktik aloqaga kirisha oladi. Shunday ekan, ularni sodda gap tarkibida gap bo‘lagi sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

6. Demak, tarkibida ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritmalar, shuningdek, ravishdosh, sifatdosh o‘ramlar, shart fe’lli qurilmalar, ko‘makchili qurilmalar, izoh qurilmalar ishtirok etgan gap turini murakkablashgan sodda gaplar deb atash o‘rinlidir.

7. Ravishdosh, sifatdosh, shart fe’li qurilmalardagi semantik, grammatik va ohangdagi mustaqillik, ergash gaplardagi mustaqillikka qaraganda nisbiy bo‘lsa-da, bu xususiyatlar ularni alohida sintaktik qurilma sifatida izohlashga olib keladi. Bu xil qurilmali gaplar qo‘shma gap bilan sodda gap orasida turadi. Shuning uchun ham, ravishdosh, sifatdosh, shart fe’lli qurilmalar ishtirok etgan gaplarni sodda gaplarning alohida bir qurilishi sifatida o‘rganish o‘rinlidir.

8. Murakkablashgan sodda gaplarni undalmalar, kirish va kiritma birliklar ishtirok etgan gaplar ham tashkil etadi. Bunday turdagi birliklarning gap bo‘lagi bo‘la olmasligi shundaki, ular gap bo‘laklari bilan sintaktik munosabatga kirisha olmaydi. Balki gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishib, ular so‘zlovchining ifodalayotgan harakat-holatga munosabatini yoki fikrlar o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi.

9. Undalma, kirish va kiritmalar, ajratilgan bo‘laklar gapda alohida ohang bilan talaffuz qilinib, gapning boshqa bo‘laklaridan ma’lum to‘xtam

bilan ajralib turadi. Demak, ular ma'nodagina emas, ohangda ham alohida mustaqildir.

10. Yuqorida aytilgan barcha fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda, murakkablashgan sodda gaplarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'ladi deb ayta olamiz.

1) murakkablashgan sodda gaplar tarkibida, asosiy gap bo'laklaridan tashqari ajratilgan bo'lak, kirish va kiritma bo'laklar bo'ladi;

2) murakkablashgan sodda gaplar orqali sodda, birgina maqsad, niyat ifodalanib qolmay, murakkab fikr ifodalanadi;

3) murakkablashgan sodda gap tarkibida ikki xil predikativ, birlik, hukm bo'ladi. Bu predikativ birlik yoki hukmning biri asosiy, bo'lib, ikkinchisi to'liq bo'lmagan fikrdir, ya'ni yarim predikativlikdir. Asosiy hukm gapning asosiy mazmunidan anglashilsa, to'liq bo'lmagan hukm bu xil gaplarning ajratilgan qurilmalari orqali ifodalanadi;

4) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etgan bo'laklar gapning boshqa bo'laklari bilan yoki gapning umumiy mazmuni bilan izohlash munosabatiga kirishadi;

5) undalma, kirish va kiritma, ajratilgan bo'laklar gapning o'ziga xos bo'laklari sanaladi. Ajratilgan ko'makchili qurilmalar to'ldiruvchi ham, hol ham bo'lmay, ajratilgan gap bo'laklarining alohida bir turini tashkil etadi;

6) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etgan bo'laklar asosiy gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishadi. Ammo bu mazmun munosabatlarining biri asosiy, yetakchi bo'lib, ikkinchisi qo'shimcha mazmun munosabatidir;

7) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etuvchi bo'laklar ajratilgan bo'lak, kirish va kiritmalar, izoh bo'lak va qurilmalar o'ziga xos ohang bilan talaffuz etiladi. Bu ohang boshqa gap bo'laklari ohangiga o'xshamaydi;

8) murakkablashgan sodda gaplar o'ziga xos sintaktik qurilmalardir. Ular sodda gaplardan ham, qo'shma gaplardan ham farqlanadi. Ma'lumki har bir sintaktik qurilmaning o'ziga xos tarkibiy qismlari bo'ladi (sodda gapning bo'laklari, qo'shma gapning ergash gaplari kabi). Murakkablashgan sodda gap sintaksisining tarkibiy qismini ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritma birliklar, izoh bo'lakli qurilmalar tashkil etadi. Shu sababli bu ko'rinishdagi sintaktik kategoriyalar oddiy gap bo'laklaridan ham, qo'shma gaplardan ham farqlanib, murakkablashgan sodda gaplar deb yuritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yenilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008, 87 b.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori//. Toshkent "Sharq" 20-29-betlar.
4. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Toshkent "Sharq" 2001 yil.
5. Umumiy o'rta ta'limning "Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi". Toshkent "Sharq" 1999 yil 1-maxsus sahifasi.
6. Takomillashtirilgan yangi tahrirdagi umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. Toshkent 2010 yil
7. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. T.: Fan, 1996.
8. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. T.: 1958
9. Boltaboyeva H. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. T.: 1962.
10. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T.: 1995.
11. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i T.: G'.G'ulom, 2012.
12. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. T.: 1976.
13. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedova A., Solixo'jayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T.: 1992
14. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. T.: 1988.
15. Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek tilida gap bo'laklari tipalogiyasi. T.: 1988.
16. Sayfullayev A.R. Hozirgi o'zbek tilida gap bo'laklarining semantikasi va grammatikasi. T.: 2000.

17. Sayfullayev A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kirish bo'lak. T.: 1972.
18. Toshaliyev I. Kiritmalarning semantik – stilistik funksiyalari. T.:, 1969.
19. Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar. T.: Fan, 1976.
20. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand, 2006.
21. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T.: 2001.
22. “O'zbek tili va adabiyoti” jurnalining keyingi o'n yilda chiqarilgan sonlari
23. O'zbek tili grammatiksi. 2 qism. T.: Fan, 1976, 95 b.
24. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: O'qituvchi, 1965, 1978, 1987.

M U N D A R I J A

Kirish. -----	3
I. bob. Murakkablashgan sodda gaplar yuzasidan nazariy qarashlar haqida.	
1.1. Sodda gap va murakkablashgan sodda gaplar.-----	8
II. bob. Murakkab sodda gaplarni shakllantiruvchi vositalar	
2.1. Kirish va kiritmalar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.-----	26
2.2. Undalmalar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar-----	39
2.3. Ajratilgan bo‘laklar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.-----	43
2.4. Sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar.-----	47
III-bob. Ishning amaliyotga tadbiqu.	
3.1. Ta’lim bosqichi dastur va darsliklarida xalq og‘zaki ijodi asarlarining berilishi.-----	56
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.-----	57
Xulosa. -----	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati -----	64